



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OLY TA‘LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI

**“TA‘LIMDAGI ISLOHOTLAR VA SOHAGA
DOIR ME‘YORIY-HUQUQIY
HUJJATLAR”**

O‘QUV – U SLUBIY MAJ MUA

Malaka oshirish kursi yo‘nalishi: Barcha yo‘nalishlar uchun

Tinglovchilar kontingenti: Akademik litseylarning pedagog xodimlari

Nukus-2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI

«Tasdiqlayman»

Mintaqaviy markaz direktori

_____ K.Ubaydullaev

«__»_____ 2025 yil

**“TA’LIMDAGI ISLOHOTLAR VA SOHAGA
DOIR ME’YORIY-HUQUQIY HUJJATLAR”
O‘QUV – U SL U B I Y M A J M U A**

Malaka oshirish kursi yo‘nalishi: Barcha yo‘nalishlar uchun

Tinglovchilar kontingenti: Akademik litseylarning pedagog xodimlari.

Nukus-2026

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishlari o‘quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: D.T. Saparov - QQDU «Huquq ta’limi» kafedrasida katta o‘qituvchisi

Taqrizchi: Sh.S. Shamshetov - QQDU «Huquq ta’limi» kafedrasida dotsenti, y.f.n.

O‘quv-uslubiy majmua Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (2026- yil “31” yanvardagi 5/6.5-sonli bayonnoma).

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI	10
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	13
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	61
V. GLOSSARIY	90
VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI:	93

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Ushbu ishchi dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4910-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 296-son qarorlarida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar hamda namunaviy dastur mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan tayanch modullari mavzulari orqali akademik litseylarda faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlarning ta’limdagi islohotlar va sohaga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilish darajasini oshirish hisobiga ularning pedagogik mahorat va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan birgalikda pedagog xodimlarning ehtiyojlari asosida tanlab olingan tanlov modullari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari ta’minlanadi.

Modulning maqsad va vazifalari

Akademik litseylar pedagog xodimlarining malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog xodimlarning o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarini yuqori ilmiy-metodik darajada ta’minlashlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini muntazam yangilash, kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratining uzluksiz rivojlanishini ta’minlashdan iborat.

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini uzluksiz oshirish va rivojlantirish;
- pedagoglarning zamonaviy talablarga mos holda akademik litseylardagi o‘qitish sifati va samaradorligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan kasbiy mahorat darajasini oshirish;
- o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish hamda ulardan o‘quv jarayonida samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- o‘quv jarayonini ilm-fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta’minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo‘yiladigan talablar:

“Ta’limdagi islohotlar va sohaga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- o‘rta maxsus ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan so‘nggi islohotlarni;
- pedagog xodimlardan talab qilinadigan o‘quv-me’yoriy hujjatlarni;
- BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi va O‘zbekiston tajribasini;
- bolalarga nisbatan zo‘ravonlik tushunchasi va turlarini;
- inklyuziv ta’limning nazariy asoslari va huquqiy kafolatlarini;
- inklyuziv ta’lim konsepsiyasi, modellari va strategiyalarini;
- turfa xil ta’lim oluvchilarni qo‘llab-quvvatlashni shakl, metod va vositalarini;
- Pedagog xodimlardan talab qilinadigan o‘quv-me’yoriy hujjatlarini ***bilishi*** kerak.

Tinglovchi:

- pedagog xodimlarga beriladigan malaka toifasi hamda ustamalar berish tartiblarini o‘zlashtirish va amaliyotga tadbiiq etish;
- bolalar huquqini himoya qilish, o‘quvchilar xavfsizligini ta’minlash;
- korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantiruvchi mashg‘ulotlarni o‘tish; • inklyuziv ta’limning nazariy asoslari, modellar va huquqiy kafolatlaridan samarali foydalanish;
- inklyuziv ta’limda pedagogning rolini kuchaytiruvchi yo‘llarni aniqlash;
- Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish ***ko‘nikma va malakalariga*** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- ta’limga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ishlash;
- ta’lim tashkilotlarida huquqbuzarliklarning oldini olish va tarbiyaviy muhitni mustahkamlash;
- zo‘ravonlikni aniqlash, psixologik yordam ko‘rsatish, profilaktik suhbatlar o‘tkazish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish;
- inklyuziv ta’limning nazariy asoslari va huquqiy kafolatlarini o‘zlashtirish va amalda qo‘llash;

MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya o‘quv yuklamasi		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	O‘rta maxsus ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan so‘nggi islohotlar	2	2	
2.	Ta’lim tashkilotlarida huquqbuzarliklarning oldini olish va tarbiyaviy muhitni mustahkamlash	2	2	
3.	Inklyuziv ta’limning nazariy asoslari va huquqiy kafolatlari	2		2
	<u>Jami:</u>	6	4	2

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: O‘RTA MAXSUS TA’LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN SO‘NGGI ISLOHOTLAR

(2 soat)

O‘rta maxsus ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan so‘nggi islohotlar. Xalqaro tajribalar. Pedagog xodimlarga malaka toifasi hamda ustamalar berish tartiblari. Pedagog xodimlardan talab qilinadigan o‘quv-me’yoriy hujjatlar.

2-MAVZU: TA’LIM TASHKILOTLARIDA HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLIH VA TARBIYAVIY MUHITNI MUSTAHKAMLASH

(2 soat)

Ta’lim tashkilotlarida huquqbuzarliklarning oldini olish va tarbiyaviy muhitni mustahkamlash. BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi va O‘zbekiston tajribasi. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik tushunchasi va turlari. Zo‘ravonlikni aniqlash, psixologik yordam ko‘rsatish, profilaktik suhbatlar. Bolalar huquqini himoya qilish, o‘quvchilar xavfsizligini ta’minlash. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-AMALIY MASHG‘ULOT: INKLYUZIV TA‘LIMNING NAZARIY ASOSLARI VA HUQUQIY KAFOLATLARI

(2 soat)

Inklyuziv ta‘limning nazariy asoslari va huquqiy kafolatlari. Inklyuziv ta‘lim konsepsiyasi, modellari va strategiyalari. Turfa xil ta‘lim oluvchilarni qo‘llab-quvvatlashni shakli, metodi va vositalari. Inklyuziv ta‘limda pedagogning rolini kuchaytirish yo‘llari.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Ta‘limdagi islohotlar va sohaga doir me‘yoriy-huquqiy hujjatlar” moduli ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta‘limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va masofaviy ta‘limga asoslangan raqamli texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- video ma‘ruzada zamonaviy interaktiv texnologiyalar yordamida prezentatsiya va elektron-didaktik texnologiyalar;
o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda bulutli texnologiyaga asoslangan dasturiy vositalar, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari va boshqa interaktiv ta‘lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Maxsus adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi O’RQ-637-sonli Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF-60-son Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O’zbekiston - 2030” strategiyasi to’g’risida”gi PF-158-son Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-4860-sonli Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-4910-son Qarori.

IV. Elektron ta’lim resurslari

1. <http://natlib.uz>
2. <http://edu.uz>
3. <http://lex.uz>
4. <http://lib.bimm.uz>
5. <http://ziyonet.uz>

INTREFAOL TA'LIM METODLARI

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

Mashg‘ulotda jarayonida qo‘llaniladigan «Aqliy hujum» usuli

Aqliy hujum	- (breynstorming - miya buroni), amaliy va ilmiy muammolarni yechishda jamoa bilan ma’lumot yig‘ish
Usulni asosiy g‘oyasi	- g‘oyalar to‘plash, ularni baholash va tahlil qilish, ajratish. “Aqliy hujum”ni olib boruvchining xatti-harakati uchun bu g‘oya asosiy ko‘rsatgich bo‘lib, ishtirokchilarni imkoniyat qadar ko‘p g‘oyalar taklif qilishga undaydi.
Qoidalari	Imkoni boricha ko‘proq g‘oyalarni taklif etish (jamlash), ularni talqin qilish, muammolarni yechish va ularni doskaga yozib qo‘yish.
Ta’lim beruvchi	Qatnashchilarni 3-4 guruhga bo‘ladi va har biriga muammolar taklif etadi (Ilova 1) - Ishtirokchilarni qo‘llab-quvvatlaydi (imo-ishora, jilmayish, ha-yo‘q so‘zlari bilan); - yumshoq, ammo astoydil tinglovchilarni boshqalarni tanqid qilishdan qaytarib turadi; - har bir fikrni o‘zgartirmasdan doskaga yozdirib qo‘yadi; - tinglovchilarni so‘rovga kirishib ketishiga yordam berish va psixologik tushkunlikni yo‘qotish uchun, oldingi yoki shu darsdan kutilmagan, original savollar berib mashq o‘tkazadi (blits so‘rov) (Ilova 2).
Fidbeyk	- har bir g‘oyani muhokama qilish; - eng to‘g‘ri g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash

Aqliy hujumning maqsadi va qoidalari

Aqliy hujumni o'tkazishdan maqsad:

- muammoni hal qilish uchun g'oyalarni topish;
- g'oyalarni ularning ahamiyatligiga qarab tartiblash;
- faol fikrlash malakasini shakllantirish;
- kutilmagan g'oyalarni paydo bo'lish jarayonini namoyish qilish;
- topilgan g'oyalardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish.

Aqliy hujum qoidalari:

- g'oyalarni ilgari surilishi bosqichida tanqid taqiqlanadi;
- original hatto fantastik g'oyalar rag'batlantiriladi;
- barcha g'oyalar yozib boriladi yoki qayd qilinadi;
- agar ma'qul topsa muallifning o'zi ham yozib boradi;
- "aqliy hujum" metodida qatnashchilar bir-biri bilan yuridik va ma'muriy jihatdan bog'liq bo'lmasligi zarur;
- tahlilchilar guruhi nisbatan samarali g'oyalarni tahlil qiladi, sintez qiladi, baholaydi va tanlaydi;
- ushbu tadbirni o'tkazishda Keynsning " iqtisodchilar adashsalar ham ularni g'oyasi kelajak uchun xizmat qiladi" degan qoidasiga amal qilish.

Natija:

- talabalar tomonidan muayyan nazariy bilimlarni puxta o'zlashtirishga erishiladi;
- vaqt ajratiladi va qilinadi;
- har bir talaba faollikka intiladi;
- ularda erkin fikrlash layoqati shakllanadi.

1. O'quv topshiriqlarini bajarish bo'yicha vazifalar

Guruhni 2 ta kichik guruhlariga bo'linadi va har bir guruh uchun savollar tarqatma material sifatida tarqatiladi.

Izoh: Qaysidir guruh to'la aniq javobni birinchi bo'lib topsa guruhni har bir a'zosiga 1.0 balldan baho qo'yiladi. Agarda guruhdan 1 yoki 2 ta talaba to'g'ri javob topsa u holda ularga 1.0. balldan rag'batlantiriladi.

Mavzu bo'yicha 1-guruh savollari:

1. O'rta maxsus ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan so'nggi islohotlar?
2. Xalqaro tajribalar.
3. Pedagog xodimlarga malaka toifasi hamda ustamalar berish tartiblari.
4. Pedagog xodimlardan talab qilinadigan o'quv-me'yoriy hujjatlar.

Mavzu bo'yicha 2-guruh savollari:

1. Ta'lim tashkilotlarida huquqbuzarliklarning oldini olish va tarbiyaviy muhitni mustahkamlash.
2. BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi va O'zbekiston tajribasi.
3. Bolalarga nisbatan zo'ravonlik tushunchasi va turlari.
4. Zo'ravonlikni aniqlash, psixologik yordam ko'rsatish, profilaktik suhbatlar.
5. Bolalar huquqini himoya qilish, o'quvchilar xavfsizligini ta'minlash.
6. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish.

III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-MAVZU: O‘RTA MAXSUS TA‘LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN SO‘NGGI ISLOHOTLAR (2 soat)

REJA:

1. O‘rta maxsus ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan so‘nggi islohotlar.
2. Xalqaro tajribalar.
3. Pedagog xodimlarga malakali kadrlar bilan mahalliy mijlambiy ish tashkilotlar, Turiston muxtoriyati, Qo‘qon fojiasi, istiqloq uchun harakat, qurolli harakatlarning bostirilishi, Turkiston muxtoriyati hukumatining tarkibi

1. O‘rta maxsus ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan so‘nggi islohotlar.

Davlatning ertangi kuni yoshlarning qay darajada bilimli ekani bilan bevosita bog‘liq. Shu bois, ta‘lim tizimini rivojlantirish masalasiga hukumat darajasida e‘tibor qaratilishi har bir davlatning muhim vazifasi hisoblanadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillar davomida Harakatlar strategiyasi va uning mantiqiy davomi sanalmish Taraqqiyot strategiyasi doirasida, rivojlangan davlatlar kabi uzluksiz ta‘lim tizimini muntazam takomillashtirib borish, sifatli ta‘lim-tarbiya berish, malakali kadrlarni tayyorlash bo‘yicha sezilarli islohotlar amalga oshirildi.

Ushbu islohotlar uchun davlat budjetidan xarajatlar so‘nggi 6 yilda **4,3** baravarga oshirildi, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari soni 2016-yildagi **5 211** tadan 2021-yilga kelib **19 316** taga, maktablar soni **9 719** tadan **10 289** taga yetkazildi, 11 yillik majburiy maktab ta‘limi qayta tiklandi, maktab o‘qituvchilarining ish yuklamasi maqbullashtirildi va majburiy mehnatga barham berildi. Ta‘lim sohasi vakillarining oylik maoshi qariyb **4 baravarga** oshirildi, OTM soni **70 tadan 191 taga** yetkazildi, oliy ta‘limdan keyingi ta‘limning ikki pog‘onali tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (Doctor of Science) tizimi joriy etildi.

Ta‘lim sohasidagi islohotlar natijasida maktabgacha ta‘lim bilan qamrov darajasi **27,7 foizdan 67 foizga**, maktablardagi malakali oliy ma‘lumotli o‘qituvchilar ulushi **81,8 foizdan 87,8 foizga**, yoshlarni oliy ta‘lim bilan qamrov darajasi **9 foizdan 38 foizga** yetkazildi.

Sohada islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida 2026-yilga qadar Taraqqiyot strategiyasi doirasida maktabgacha ta‘limda qamrov darajasini hozirgi **67 foizdan 80 foizga** yetkazish, **7 mingdan** ziyod yangi nodavlat MTTlarni

tashkil etish, xalq ta'limi tizimida qo'shimcha **1,2 million** o'quvchi o'rnini yaratish, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatining boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bepul ovqatlanish bo'yicha yo'lga qo'yilgan ijobiy amaliyotni 2023/2024 o'quv yilidan qolgan barcha viloyatlar va Toshkent shahri maktablarida ham joriy etish ko'zda tutildi. Shuningdek, oliy ta'limda qamrov darajasini **50 foizga**, nodavlat OTMLar sonini kamida **50** taga yetkazish belgilab olindi.

Yuqorida keltirilgan islohotlarni yanada mustahkamlash va bardavom bo'lishini ta'minlash, konstitutsiyaviy qonunchilikda yoshlarning uzluksiz ta'lim olishga bo'lgan imkoniyatlarini mustahkamlashni taqozo etmoqda.

Shuni inobatga olgan holda, yangilanayotgan Konstitutsiyada ilk marotaba bog'cha yoshidagi bolalarning ta'lim va tarbiyasi sohasidagi davlat kafolatining joriy etilishi, bolaning o'rta ta'lim olishi majburiyligi va davlat tomonidan bepul ta'minlanishi, fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishi kabi qo'shimchalar bilan to'ldirilmoqda.

Ta'lim sohasida davlatning alohida majburiyatlari sifatida imkoniyati cheklangan bolalarning sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan aniq mexanizmlari nazarda tutilgan bo'lib, ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanishi haqida ijtimoiy norma kiritilmoqda.

Yuqoridagi islohotlarni amalga oshirish uchun ta'lim berish sifatiga e'tibor berish va ushbu sohada ishlashning jozibadorligini doimiy ravishda oshirish zarur. Zero, millat va xalqning rivoji, uning intellektual salohiyatini oshirish o'qituvchilar faoliyatiga bog'liq. O'qituvchi ilm-fan sirlari, ma'naviy va madaniy merosni yoshlarga yetkazishda muhim bo'g'in hisoblanadi. Demak, o'qituvchilarga o'zlarining salohiyatini to'liq namoyon etishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ularni ijtimoiy, huquqiy, moddiy qo'llab-quvvatlash darkor.

Shu bois, Konstitutsiyaga o'qituvchining jamiyatdagi maqomiga bag'ishlangan alohida modda kiritilmoqda. O'zbekistonda o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etilishi mustahkamlanmoqda. Davlatning o'qituvchilar sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishi, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi nazarda tutilmoqda.

O'z navbatida, mazkur yangilik mamlakatda faoliyat yuritayotgan 685 mingdan ortiq pedagogning ijtimoiy mavqeini mustahkamlash, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini kuchaytirish va kasbiy o'sishini ta'minlash imkoniyatini yaratadi.

Xulosa shuki, inson kapitali sifatini oshirmasdan turib, keyingi iqtisodiy o'sishni ta'minlash qiyin kechadi. Shu bois, zarur kuch va resurslarni ta'lim sifatini

oshirishga, malakali kadrlar tayyorlashga yo‘naltirish nafaqat bugun, balki ertaning ham ustuvor vazifasiga aylanmoqda.

Shu boisdan ham, har bir mamlakat erkin va farovon jamiyat qurishga intilar ekan, bu yo‘ldagi ulug‘vor maqsad va vazifalarini, avvalo o‘z Konstitutsiyasida mustahkamlaydi. Bunga esa, aslo shubha yo‘q.

Mamlakatimizda ilm-fan va ta‘lim-tarbiya sohasini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilib, oilada farzand tug‘ilganidan boshlab, voyaga yetguniga qadar uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o‘rin topishiga xizmat qiladigan yaxlit va uzluksiz tizim yaratilmoqda.

2023-yil 30-aprel kuni referendum asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ta‘lim olish huquqining yanada yorqinroq aks ettirilishi yuksak ahamiyat va ulkan ma‘no-mazmun kasb etmoqda. Zero, bugungi kundagi eng qimmat resurs hisoblanmish inson kapitalining yaratilishida ta‘lim tizimining o‘rni beqiyosdir.

Asosiy qonunimizda oliy ta‘lim masalalariga alohida e‘tibor qaratilgani e‘tiborga molik. Chunki bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyoda zamonaviy kasb va ko‘nikmalarga ega, raqobatbardosh kadrlarni yetkazib berish uchun oliy ta‘lim muassasalariga zamonaviy yondashuvni talab etardi.

Ushbu chaqiriqqa javob sifatida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda oliy ta‘lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o‘zini o‘zi boshqarish, tadqiqotlar o‘tkazish va o‘qitish erkinligi huquqiga ega ekanligi belgilandi. Bu akademik sohada, boshqaruv, ilmiy-tadqiqotlar olib borish, shuningdek o‘qitish borasidagi erkinlik oliy o‘quv yurtlariga bir qator imkoniyatlar eshigini ochib berdi.

Natijada qotib qolgan qoliplardan xalos bo‘lgan holda zamon talablariga mos o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish hamda ular asosida sifatli ta‘lim berish imkoniyati vujudga keldi. Talabalarga o‘zlari o‘qiydigan fanlarni tanlash imkoniyatini berish orqali esa oliy ta‘limning jozibadorligi oshdi.

Shuningdek, xalqaro nufuzli oliy ta‘lim muassasalari va ishlab chiqarish tashkilotlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalari o‘rnatish bo‘yicha yangi bosqich boshlandi. Qolaversa, talabalarni ilm-fanning eng so‘nggi yutuqlari bilan tanishtirish hamda ularda keng dunyoqarashni shakllantirish maqsadida akademik mobillik dasturlari yo‘lga qo‘yildi.

Bosh qomusimizning 1-moddasida O‘zbekiston Respublikasini ijtimoiy davlat sifatida e‘lon qilinishi ta‘lim sohasida ham o‘z aksini topdi. Xususan, “Davlat bepul umumiy o‘rta ta‘lim va boshlang‘ich professional ta‘lim olishni kafolatlaydi”. Shuningdek, “Ta‘lim tashkilotlarida alohida ta‘lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta‘lim va tarbiya ta‘minlanadi” mazmunidagi konstitutsiyaviy normalarni davlatning o‘z fuqarolari oldidagi ulkan g‘amxo‘rliги sifatida qabul qilish mumkin.

Xalqimiz kutgan islohotlarning eng muhim jihatlaridan yana biri — bu oliy ta'lim bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqadorlik integratsiyasini to'g'ri yo'lga qo'yilgani bo'ldi, desak yanglishmaymiz. Sababi hamkorliksiz yuqori malakali, zamon talabidagi kadrlar tayyorlash qiyin.

Ilgari mamlakatimizdagi yirik sanoat korxonalarining buzilib ketishi natijasida hamkorlik aloqalari uzilib, ta'lim o'z yo'lida, ishlab chiqarish o'z yo'lida faoliyat yuritardi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar tufayli yurtimizda yirik va o'rta ishlab chiqarish korxonalari qad ko'tardi. Oliy ta'lim bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlik integratsiyasi yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda texnika oliy o'quv muassasalari talabalari nafaqat yangi texnologiyalar bilan tanishish, balki ularni boshqarish amaliyotiga ham ega bo'lmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda belgilangan yana bir muhim masalaga alohida to'xtalib o'tish joiz. Xususan, unda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir" mazmunidagi normaning mavjudligi davlatning ta'lim va tarbiya sohasidagi asosiy majburiyatlarini belgilab berdi.

So'nggi bir yilda ushbu sohadagi qonunchilik bazasi ham sezilarli ravishda takomillashdi. Xususan, "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Ushbu muhim hujjatda pedagoqlarning huquqlari, majburiyatlari, faoliyatining asosiy kafolatlari aniq mustahkamlab qo'yildi. Mehnatiga yarasha haq to'lash, rag'batlantirish va ijtimoiy himoya qilish tamoyillari ko'rsatildi.

Ushbu qonunga muvofiq, pedagogni kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan ishlarga, shu jumladan, hududlarni obodonlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilish taqiqlandi. Kasbiy majburiyatlariga taalluqli bo'lmagan ma'lumotlarni, xususan, bitiruvchilarning bandligi ta'minlangani haqidagi hisobotlarni shakllantirishi va taqdim etishini ulardan talab qilish man etildi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Muxtasar aytganda, ta'lim sifatini oshirmasdan turib, kelgusidagi iqtisodiy o'sishni ta'minlab bo'lmaydi. Shu bois, bugun barcha zarur kuch va resurslarni ta'lim sifatini oshirishga, malakali kadrlarni tayyorlashga yo'naltirish lozim. Zotan, ta'lim va ilm-fan rivoji — taraqqiyot garovidir.

2. Xalqaro tajribalar.

Vatanimiz ta'limi keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirdi va kechirmoqda. Ulardan ko'zda tutilgan maqsad maktab faoliyatini demokratlashtirish uning, insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosida o'quv tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Yangilangan ta'lim to'la ma'noda yangicha tafakkur, sog'lom fikr demakdir. Hozirgi davrda ta'limning qadr -qimmatini, obro va nufuziga teng darajada uning

ijrochilarida tashabbuskorlik, fidoyilik va ishbilarmonlik ham bo'lmog'i zarur. Ta'limdagi muvvafoqiyat, aksariyat dadil harakat qiluvchilar tarafida bo'ladi. Dadil harakat, shijoat tufaylifdir. Shijoatni esa insonga, o'zbek milliy pedagogikasining mumtoz namoyondasi Abdulla Avloniy takidlaganlaridek maktab ilm- ma'rifat baxsh eta oladi.

Qadimdan bizda bilim olish qadrlangan. Bilimdon kishilar esa el-yurt ardog'ida bo'lganlar. Shuning uchun ham bilim olish va olingan bilimni mamlakatimiz xizmati yo'lida xizmat qildirish oliy insoniylik burchimizdir. Bu vazifalarni muvvafoqiyatli hal etishni muhim shartlaridan biri chet el maktabi va pedagogikasi tajribalari o'rganishdir. Xalqaro tajribalarini sinchkovlik va qunt bilan o'rganish orqali ta'lim tarbiyada qotib qolgan, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan ish shakllari, uslublaridan xalos bo'lish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ega bo'lamiz. Davlatimiz rahbari mamlakatda kadrlar muammosi mavjudligini barcha sohalarga islohotlar sur'atiga mos zamonaviy mutaxassislar kerakligini aytgan edi. Shu maqsadda butun ta'lim tizimi takomillashtirilmoqda. Maktabgacha ta'lim rivojlantirilayotganini maktab saboqlariga puxta zamin bo'lmoqda. Umumiy o'rta ta'lim sifati ilg'or xalqaro tajriba va zamon talablari asosida yuksaltirilmoqda. Prezident maktablari, buyuk allomalarimiz nomi bilan ataladigan ixtisoslashtirilgan maktablar, ijod maktablari, Temurbeklar maktablari kabi zamonaviy va innovatsion ta'lim maskanlari tashkil etildi. Ularda xalqaro tajribalar yo'lga qo'yilganligi kelajakda yetuk kadrlar yetishib chiqishidan dalolat beradi. 2019-yil 26-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, Zamonaviy maktab" larni tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida "gi qaror qabul qilindi. Qarorga muvofiq 2021-yilgacha maktablarnng kamida 3 foizi, 2025-yilgacha 20 foizi 2030-yilga qadar esa 50 foizini, zamonaviy maktab" larga aylantirishning asosiy parametrlari belgilandi. Prezidentimiz shu yil yanvar oyida Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomada maktab o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarurligini takidladi. Maktablarda moddiy-texnik ta'minotini yaxshilash, o'quv tarbiya jarayonida xalqaro zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo'llash bo'yicha vazifalarini belgilab berdi. Yurtimizda matematika, kimyo, fizika, va biologiya darslarining 10 foizigina amaliy mashg'ulotga ajratilgan. Rivojlantirilgan davlatlarda bu ko'rsatkich 30-50 foizni tashkil etadi. Shu bois xalq ta'limi vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga o'quv dasturlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, aniq fanlarda amaliy mashgu'lotlar ko'lamini oshirish vazifasi qo'yildi. Bugungi kunda har qaysi xalq davlat va jamiyatning taraqqiyot darajasi, avvalambor uning inson kapitaliga, inson rivojida berayotgan e'tibori bu yo'ldagi say harakatlari bilan o'lchanadi. Bugungi

kunda ta'lim mazmuniga bo'lgan e'tibor rivojlangan mamlakatlardagi shart – sharoitlarga yetib bormoqda. Buning isboti sifatida xorijiy mamlakatlarda ta'lim tizimini tahlil qilib o'tamiz. Yaponiya ta'lim tizimi Yaponiya ta'limida “iqtidorli o'quvchi” tushunchasi yo'q. chunki har bir o'quvchi alohida iqtidor sohibidir. Ilg'or mamlakatlar ichida Yaponiya ta'limi o'ziga xos yo'nalishi yetakchi o'rinni egallaydi. Jumladan, Yaponiya ta'lim tizimining tarkibi quyidagicha: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich maktab, kichik o'rta maktab, yuqori o'rta maktab, oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi oliy o'quv yurtlari. Boshlang'ich maktabda o'qituvchilar bolalarni tanqidga, ya'ni o'z xulqining yomon jihatlarini, maktabdagi kamchiliklarni tanqid qilishga o'rgatishadi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'qituvchi faqat ta'lim berish bilan cheklanib qolmay, bolaning har tomonlama rivojlanishiga tasir etadi. Yaponiya rivojlangan davlatlar ichida o'qituvchining maoshi davlat rahbarlari orasida ham yuqori bo'lgan yagona davlat. Majburiy ta'lim muhiti. Ta'limning bu pog'onasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'z ichiga oladi. Muhtoj oilalarning bolalariga moddiy yordam ko'rsatiladi. Yuqori o'rta maktab 10-11-12-sinflarni o'z ichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi, kechki bo'limlari mavjud. Yuqori bosqich o'rta maktablarda butun o'quv jarayonida o'quvchilar 80 ta sinov topshirishadi. O'quvchilar majburiy asosiy fanlardan tashqari o'z xohishlariga ko'ra ingliz tili, texnik ta'lim va maxsus sinovlarga jalb etiladi. Universitetlariga yuqori va o'rta maktabning yoki 12 yillik oddiy maktabni bitirgan o'quvchilari qabul qilinadi. Universitetlarga qabul qilinish 2 bosqichga bo'linadi: 1-bosqich turar joyda o'tkaziladi, buning uchun yapon tili, matematika, fizika, kimyo, jamiyatshunoslik, tarix bo'yicha test sinovlaridan o'tkaziladi. Yaponiyada oliy ta'lim majburiy hisoblanadi va u kasb ta'limi bilan uzviy bog'liqdir. Yaponiyada bolalar tarbiyasida onalarning roli va mas'uliyati ayniqsa kattadir. Ular farzandlarining aqlli, dono va mehnatsevar bo'lib o'sishlari uchun oila sulolasi va davlat oldida o'zlarini ma'sul deb hisoblaydi. Yaponiyada oilaviy tarbiya xususida ko'plab metodik qo'llanmalar va tavsiyanomalar nashr etiladi, radio va televideniya orqali ko'plab pedagogik maslahatlar berib boriladi. Yaponiya oilalaridagi uy partalari diqqatga sazovordir. U mukammal, yon tomonidan muhofazalangan qurilma bo'lib, parta ustida kitob javoni, yoritkich, soat, qalam, qog'oz, mikrokalkulyator va boshqa zaruruy ashyolar, shuningdek kerak bo'lib qolgan taqdirda ota-onalarini chaqiradigan signal tugmachalarigacha o'rnatilgan.

Yaponiya o'rta maktablarining saviyasi AQSH o'rta maktablari saviyasidan bir muncha yuqori turadi. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki yaponiyada ta'lim tizimi ham shaklan, ham mazmunan yuksak uyg'unlik kasb etgan. Ibrat olsa, o'rgansa arziydigan jihatlari ko'p. E'tiborli yana bir tomoni – Yaponiyada faqat milliy an'analar bilan cheklanib qolmay jahondagi AQSH, Fransiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarning ilg'or pedagogik ish tajribalari ham ijodiy

o'zlashtirilgan. Bunday tajribalar Respublikamiz ta'lim tizimini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishda qo'l kelishi shubhasiz. Amerika Qo'shma Shtatlari ta'lim tizimi: Amerikada o'rta ta'lim 12 yil bo'lib boshlang'ich o'rta va quyi maktablarga bo'linadi. Aksariyat qismi davlat maktablaridan iborat va ularda o'quvchilarning 88 foizi o'qiydi. Ta'lim muassasalarini davlat va shahar buyudjetlari moliyalashtiradi, Qo'shma shtatlarda yalpi ichki mahsulotning 7.5 foizi har yili ta'limga sarflanadi. 12 foiz o'quvchilar xususiy maktablarga boradi, ularning moddiy resurslari ota-onalar, turli mablag'lar va xayriya mablag'lari hisobidan shakllantiriladi. Mamlakatlarda ta'lim maskanlari raqamlarga ega emas, ammo ular hududlar bo'yicha yoki mashhur kishilar nomi bilan ataladi. Odatda har bir sinf xonasi televizor va kompyuterga ega. Kompyuter sinflari yuqori tezlikdagi internetga ulangan. Amerikada nusxa ko'chirish uskunalari juda ko'p joylashtirilgan. Chunki o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga deyarli barcha vazifalar bosma shaklda beriladi. Boshlang'ich maktabda har yil sinf o'qituvchisi o'zgaradi. Boshlang'ich sinflarda matematik bilimlarning hajmi Rossiya va Angliya maktablari darajasiga nisbatan biroz yengilroq. Ko'paytirish jadvali 3-sinfdan boshlanadi. Amerika maktablaridagi o'ziga xos usullaridan biri har bir o'quvchining, Hisobot kartasi'yuritilishidir. Unda o'quvchi 10 xil xatti -harakati bo'yicha baholanadi. Ota-onalar ushbu karta bilan tanishib borar ekan, farzandlariga oqsayotgan tomonlarini aniqlab, uni tuzatishga harakat qilishadi. Amerika pedagoglari haftasiga bir marta 1-3-sinf o'quvchilari uchun "Sevimli o'yinchoq" metodini qo'llashadi. Bu metodda bolalar o'yinchog'ini tariflaydi. Mazkur metodni qo'llashdan maqsad bolani uyatchanlikdan xalos bo'lishga, sinfdoshlari orasida erkin gapirishga o'rgatishdir. Amerikada ta'limni haddan ziyod demokratlashuvi talabalar bilimining puxtaligini tekshirish va nazorat qilishda qiyinchiliklar tug'diradi. Shu sababli boy moddiy baza va tajribaga ega bo'lgan davlatda butunlay savodsiz bo'lgan bolalar ham topiladi.

AQSH da ta'lim tizimining maqbul tomonlarining ijobiy qo'llanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Germaniya ta'lim tizimi: Germaniya jahon ma'rifat va madaniyat o'choqlaridan biri. Ushbu davlatda har bir fuqaro o'z shaxsini erkin rivojlantirish, o'z iqtidori moyilligi va qobiliyatiga qarab maktab, o'qish joyi va kasb tanlash huquqiga ega. Maktab ta'lim tizimi boshlang'ich va o'rta ta'lim muassalaridan iborat. Barcha davlat maktablarida o'qish bepul. Germaniyada maktab ta'limi quyidagi maktab tiplariga bo'linadi: boshlang'ich maktab; yo'nalish maktablari; asosiy maktab; real maktab; gimnaziya; umumiy maktab; maxsus maktab. Boshlang'ich maktab ta'lim tizimining poydevori hisoblanadi. Boshlang'ich maktabdan so'ng o'quvchilar yo'nalish maktabga o'tishadi. Asosiy yoki to'liq xalq maktabi boshlang'ich maktabni bitirib, real maktab yoki gimnaziya bormagan barcha o'quvchilar uchun majburiydir. Asosiy maktab o'qituvchilari o'zlarini

o'qituvchi emas, ijtimoiy pedagog, deb his qiladi. Lekin asosiy maktabdagi o'quvchilar yomon o'zlashtirishiga qaramasdan kasbiy ta'lim olishiga majbur bo'lishadi. Real maktablar ikkinchi bosqichga qarashli bo'lib, odatda 5-10-sinflarni o'z ichiga oladi. Real maktab yuqori darajali kengaytirilgan umumiy ta'lim beradi va o'quvchilarni mustaqil fikrlash, mas'uliyat hissi, insonlarga rahbarlik qilish ko'nikmalariga yuqori talab qo'yadigan kasb egalari bo'lishi uchun kasbiy ta'lim kurslariga tayyorlaydi. Germaniya ta'limi o'ziga xos yo'nalishga juda murakkab tizimga ega. Germaniya davlatida taraqqiy etgan davlatlar orasidan o'rin olishda o'zini oqlab kelayotgan ta'lim tizimi mavjud.

Fransiya ta'lim tiizimi: Fransiyada ta'lim sifati ta'lim, sport va tadqiqotlar bo'yicha bosh inspeksiya tomonidan nazorat qilinadi. Ushbu bosh inspeksiya 4 ta vazirlik uchun faoliyat ko'rsatadi. Bosh inspeksiya 4 ta vazifani bajaradi:

1. Qo'llab-quvvatlash - ta'lim, fan, sport, madaniyat boshqaruv idoralarini oliy ta'lim rektoratlarini.
2. Ekspertiza qilish - vazirliklar, idoralar, shartnomalar, rahbarlar faoliyati, xizmatlar, tuzilmalar va boshqalar.
3. Baholash - tashkilotlar, muassasalar, tuzilmalar, ijtimoiy siyosiy ahvol, kadrlar.
4. Nazorat qilish - tashkilotlar, muassasalar, xizmatlar va kadrlar.

Bosh inspeksiyada to'planadigan tajribalarning xilma-xilligi, bolalar bog'chasidan doktoranturaga qadar davlat siyosatini muvofiqlashtirish imkonini beradi. Bu esa ta'lim, fan va yoshlarni rivojlantirishga, o'quvchilarni sport, jamiyat hayoti va jamoat o'qishiga jalb etishga ta'sir qiladi. Fransiya ta'lim tizimiga ko'ra bola 6-7 yoshida tayyorlov sinfga boradi, keyin shu maktabda 4 yil boshlang'ich sinfda o'qiydi. Bu boshlang'ich sinflar odatda alohida boshlang'ich maktab sifatida faoliyat ko'rsatadi hamda ularning inspeksiyasi ham, alohida bo'ladi. Keyingi bosqich o'rta ta'lim kollej deb ataladi. U yerda bola 4 yil o'qiydi va yakunida to'liqsiz maktab bitiruvchisi deb hujjat beradi. Keyingi 3 yil davomida turli yo'nalishdagi litseylarda o'qiydi hamda yakunida bakalavr imtihonini topshirib uning natijasiga qarab OTM larga qabul qilinadi. O'qituvchilarni ishdan olishni maktab direktori amalga oshirmaydi. Yaxshi ishlamaydigan o'qituvchilarni direktor tavsiyasiga muvofiq ta'lim inspeksiyasi tomonidan taftish qilinadi. Uning intizomi, o'qituvchilik faoliyati, bolalar, ota-onalar o'rtasidagi obro'si diqqat bilan o'rganiladi va tegishli chora ko'riladi. Maktab o'qituvchilariga qo'yilgan talab Fransiyada o'ta yuqori. Ayniqsa boshlang'ich maktablarda o'qituvchi o'z kasbining ustasi, ajoyib notiq, san'atkor, musiqachi, sportchi, tashkilotchi, namunali xulq egasi bo'lmog'i lozim. Fransiya ta'lim tizimlarida maktabdan va sinfdan tashqari muassasalari ko'zda tutilmagan. Biroq maktablarda, litseylarda turli to'garaklar mavjud. O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat

qilish ta'lim inspeksiyasi tashkil qilinganiga endigina 2 yildan oshdi. O'tgan davr mobaynida inspeksiyaga yuklatilgan vazifalar bajarish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni yurtimiz ta'lim sifatini baholash ishlarini joriy etish bo'yicha maqsadli ishlar olib borilmoqda. Biz ayni damda chet el pedagogikasidagi ilg'or jihatlarini o'zlashtirish, yangi- yangi o'quv predmetlarini ta'lim tarkibiga kiritish bilan jahondagi eng ilg'or pedagogikalarinig biriga aylantirish.

Ayni damda AQSH pedagogikasidagi:

1. Bolani o'z kuchi, imkoniyatiga ishonch ruhiyatida tarbiyalash.
2. O'quvchining eng kichik shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun kurash

3. Bolani kamsitmaslik, insoniylik qadriyatlarini va g'ururini yerga urmaslik
4. O'quvchini ilk davridanoq kasbga yo'naltirish
5. Vataniga faxr va iftixor ruhi bilan tarbiyalash.

Yaponiya ta'limidagi:

1. Bolani maktabga puxta tayyorlash
2. Kichikintoylar ta'lim va tarbiyasiga ota-onalar masuliyatini kuchaytirish;
3. O'quvchilarni nafosat jismoniy kamolotiga berilayotgan e'tibor;
4. O'qituvchi kadrlariga yuksak talabchanlik;
5. Yosh talantlar bilan olib borilayotgan izchil ishlar.

Germaniya ta'limidagi:

1. Tabaqallashtirib o'qitishga kuchli e'tibor;
2. O'quvchilarni mehnat ta'limini mustahkamlash
3. Kasbga yo'naltirish.

Fransiya ta'limidagi:

1. Maktabgacha tarbiyadanoq o'quvni predmetlashtirib tashkil etish;
2. Boshlang'ich ta'limni 3 bosqichda puxta amalga oshirish
3. O'quvni didaktik vositalar bilan ta'minlashga berilayotgasmn katta e'tibor.
4. O'quv muassasalarinig turli firmalar, konsernlar, korxonalar, mustahkam aloqalari va boshqa ibratli jihatlari bizning ta'limga ham ko'chib bormoqda. Albatta ta'limga har qanday yangilik, o'zgarish, jiddiy tahlillar, tajribalar asosida kirib keladi.

O'zbekiston 2021-yilda PISA va PIRLS xalqaro baholash tizimida ishtirok etishi rejalashtirilgan. Bu sinovga barcha tayyorgarlik ko'rishi kerak. Ya'ni bu yilgi 3-sinf o'quvchilarimiz 2021-yilda 4-sinf bo'ladi. Bu o'quvchilarni mazkur jarayonga tayyorlash uchun xalqaro baholash tizimida ishtirok etib kelayotgan rivojlangan davlatlarning xalqaro tajribalari bilan o'rtoqlashishga to'g'ri keladi.

3. Pedagog xodimlarga malaka toifasi hamda ustamalar berish tartiblari.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING

QARORI

O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA’LIMI MUASSASALARI XODIMLARI MEHNATIGA HAQ TO‘LASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN TIZIMINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari xodimlarini moddiy rag‘batlantirishni kuchaytirish va ular mehnatiga haq to‘lash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2008-yil 30-iyuldagi PQ-929-son [qarorini](#) bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining pedagog va rahbar xodimlari mehnatiga haq to‘lashning bazaviy tarif stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 21-iyuldagi PF-4014-son [Farmoniga](#) muvofiq budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi miqdori 1, 2 baravar oshirilganligini hisobga olgan holda [1 — 3-ilovalarga](#) muvofiq 2008-yil 1-sentabrdan boshlab amalga kiritilsin.

2. Quyidagilar:

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari xodimlari mehnatiga haq to‘lash to‘g‘risidagi [Nizom](#) 4-ilovaga muvofiq;

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasining Direktor jamg‘armasi to‘g‘risidagi [Nizom](#) 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilab qo‘yilsinki, Direktor jamg‘armasi mablag‘lari:

o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining yuqori kasb mahoratiga ega bo‘lgan va o‘quv-tarbiya jarayoni sifatini oshirishga aniq shaxsiy hissa qo‘shayotgan o‘qituvchilari va ishlab chiqarish ta’limi ustalari bazaviy tarif stavkalariga har oylik ustamalar belgilash;

o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari xodimlariga bir yo‘la mukofotlar to‘lash va moddiy yordam ko‘rsatish uchun yo‘naltiriladi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi bilan birgalikda, Moliya vazirligi bilan kelishgan holda, ikki hafta muddatda O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasi huzuridagi alohida o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarni rag‘batlantirish bo‘yicha maxsus komissiya to‘g‘risidagi [Nizomni](#) ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlasin, unda:

maxsus komissiyaning huquqlari va mas’uliyati, uning majlislarini o‘tkazish va qarorlar qabul qilish tartibi;

o‘qituvchilar va ishlab chiqarish ta’limi ustalari mehnat faoliyatining reyting ko‘rsatkichlari asosida ularning bazaviy tarif stavkalariga har oylik ustamalarning aniq miqdorlarini belgilash tartibi;

Direktor jamg‘armasi mablag‘larining maqsadli sarflanishini nazorat qilish tartibini va buning uchun mansabdor shaxslarning mas’uliyati;

maxsus komissiyalarning samarali faoliyat ko‘rsatishi bilan bog‘liq boshqa masalalar belgilansin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi markazi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi bilan birgalikda bir oy muddatda:

o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka [tavsiflarini](#);

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari o‘qituvchilari va ishlab chiqarish ta‘limi ustalarini attestatsiyadan o‘tkazish hamda ularga malaka toifalari berish tartibi to‘g‘risidagi [Nizomni](#) qayta ko‘rib chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlasin.

Ularda:

pedagog xodimlar kasb malakasini, bilim darajasini va pedagogik mahoratini baholashning ular malakasi xolisona baholanishini ta‘minlovchi mezonlarini takomillashtirish, shuningdek pedagogning yoki ishlab chiqarish ta‘limi ustasining malaka darajasi yomonlashgan taqdirda belgilangan lavozimni yoki toifani pasaytirish;

pedagog xodimlarni attestatsiyadan o‘tkazish natijalariga ko‘ra lavozimni yoki malaka toifasini oshirish (pasaytirish);

o‘qituvchilar lavozimiga faqat oliy yoki o‘rta maxsus, kasbiy ma‘lumotga ega bo‘lgan xodimlar qabul qilinadigan tartibni belgilash;

lavozimga tayinlash yoki malaka toifasi berish uchun zarur bo‘lgan eng kam staj muddatlarini belgilash nazarda tutilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi markazi:

2008-yil 1-sentabrgacha o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari xodimlari mehnatiga haq to‘lashning takomillashtirilgan tizimini joriy etish yuzasidan, ayniqsa joylarda zarur tayyorgarlik va tushuntirish ishlarini amalga oshirsin;

har bir yil yakunlariga ko‘ra, ochiqlik va oshkoralik shartlarida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari bitiruvchilarini tayyorlash darajasi, ularni ishga joylashtirish yoki ularning oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirishi bo‘yicha reyting baholanishini ta‘minlasin;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi bilan birgalikda 2008-2009-yillar mobaynida akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning barcha pedagog xodimlarini, ishlab chiqarish ta‘limi ustalarini attestatsiyadan o‘tkazsin hamda uning natijalariga ko‘ra xodimlarga tegishli malaka toifalarini belgilasin.

Amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasining 2008-yil yakunlari bo‘yicha majlisida axborot berilsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Ta‘lim va sog‘liqni saqlash masalalari kotibiyati, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Moliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari xodimlari mehnatiga haq to‘lash tizimini takomillashtirish bilan bog‘liq chora-tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan qat‘iy monitoring

o'rnatsinlar.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi monitoring asosida har chorakda Vazirlar Mahkamasiga mazkur qarorda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha xarajatlarning o'z vaqtida va to'liq moliyalashtirilishi to'g'risida belgilangan tartibda axborot bersin.

8. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining [6-ilovaga](#) muvofiq ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin va ba'zilari 2008-yil 1-sentabrdan boshlab o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari R.S. Azimov va O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari R.S. Qosimov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2008-yil 1-avgust,
165-son

Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 1-avgustdagi 165-son [qaroriga](#) 1-
ILOVA

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari pedagog xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy tarif stavkalari MIQDORLARI

(so'm)

T/r	Nomi	Akademik litsey o'qituvchisi	Kasb-hunar kolleji o'qituvchisi
1.	Bosh o'qituvchi	218690	206578
2.	Yetakchi o'qituvchi	206578	194649
3.	Katta o'qituvchi	194649	182266
4.	Oliy ma'lumotli o'qituvchi o'qituvchi	170179	159003
5.	O'rta maxsus ma'lumotli		

Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 1-avgustdagi 165-son [qaroriga](#)
3-ILOVA

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari rahbar xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy tarif stavkalari MIQDORLARI

(so'm)

T/r	Lavozimlar nomi				
		I guruh	II guruh	III guruh	IV guruh
1.	Direktor	340754	323264	306166	289209
2.	Direktorning o'quv ishlari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar va ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha o'rinbosari	323264	306166	289209	272509
3.	Chaqiriluvgacha tayyorgarlik rahbari	218690	206578	194649	182266
4.	Jismoniy tayyorgarlik rahbari	182266	170179	159003	147891
5.	Kasb-hunar kollejining katta ustasi	161101	150146	139410	128705

6.	Kasb-hunar ta'limi muassasalari chiqarish ustaxonasi mudiri	118408	118408	118408	118408
----	---	--------	--------	--------	--------

Izoh.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari ta'limning ixtisoslik yo'nalishlari bo'yicha bo'lim mudirlari bazaviy tarif stavkalarining miqdorlari bo'limda ta'lim olayotgan o'quvchilar kontingentidan kelib chiqqan holda belgilanadi:

150 nafardan 300 nafargacha — 108518 so'm.

301 nafardan 450 nafargacha — 118408 so'm.

451 nafardan 600 nafargacha — 128705 so'm.

601 nafar va undan ortiq — 139410 so'm.

Vazirlar Mahkamasining
2008-yil 1-avgustdagi 165-son [qaroriga](#)
4-ILOVA

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lash to'g'risida NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish va ular mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2008-yil 30-iyuldagi PQ-929-son [qaroriga](#) muvofiq ishlab chiqilgan hamda budjetdan mablag' bilan ta'minlanadigan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining pedagog xodimlari, ishlab chiqarish ta'limi ustalari va rahbarlari mehnatiga haq to'lash tartibi va shartlarini belgilaydi.

Ushbu Nizomning amal qilishi:

budjet tashkilotlari uchun qo'llaniladigan Yagona tarif setkasi asosida amalga oshiriladigan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlari;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 12-apreldagi 147-son [qaroriga](#) muvofiq Yagona tarif setkasi asosida amalga oshiriladigan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat boshqaruvi organlari xodimlari mehnatiga haq to'lashga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi xodimlarining ish haqi bazaviy tarif stavkasini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchilikda va ushbu Nizomda nazarda tutilgan ustamalar va qo'shimcha to'lovlarni o'z ichiga oladi.

II. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlarining tarif stavkalari (lavoziim maoshlari)

3. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlarining lavoziim maoshlari:

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining pedagog va rahbar xodimlarining har bir lavoziimi va malaka toifasi uchun belgilanadigan bazaviy tarif stavkalari;

xodimlarga qonunchilikda belgilangan ustamalar va qo'shimcha to'lovlar asosida shakllantiriladi.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari pedagog xodimlarining bazaviy tarif stavkalari:

xodimning lavozimiga;
xodimning malaka toifasiga;

o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasining tipiga bog‘liq ravishda tabaqalashtiriladi.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari rahbarlarining bazaviy tarif stavkalari quyidagi jadvalga binoan o‘quvchilar kontingentiga bog‘liq ravishda muassasalar guruhlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi:

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasining tipi	Kontingent soni (kishi)			
	I guruh	II guruh	III guruh	IV guruh
Akademik litsey	851 nafar va undan ortiq	651— 850	401— 650	400 nafargacha
Kasb-hunar kolleji	1051 nafar va undan ortiq	751— 1050	451— 750	450 nafargacha

4. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari pedagog xodimlarining kasb mahorati o‘shirishini rag‘batlantirish maqsadida O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘qituvchilari va ishlab chiqarish ta’limi ustalarini attestatsiyadan o‘tkazish hamda ularga malaka toifalari berish tartibi to‘g‘risidagi nizom bilan belgilanadigan talablarga, shuningdek Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan tasdiqlangan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari xodimlari lavozimlarining malaka tavsiflariga muvofiq xodimlarning lavozimlari va malaka toifalari belgilanadi.

Pedagog kadrlar lavozimlariga tayinlash yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan normativ hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Sport bo‘yicha trener-o‘qituvchilar mehnatiga haq to‘lash normativlari, ularning ish haqini hisoblash tartibi, sport kollejlari va olimpiya zaxiralari kollejlarning jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha xizmatchilari lavozimlarining malaka tavsiflari O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va belgilangan tartibda tasdiqlangan nizomlarga muvofiq belgilanadi.

5. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari xodimlarining bazaviy tarif stavkasini o‘zgartirish:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlariga muvofiq budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi oshganda;

xodim o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasida boshqa lavozimga o‘tganda;

xodimning lavozimi yoki malaka toifasi o‘zgarganda (oshganda yoki pasayganda) amalga oshiriladi.

Bazaviy tarif stavkasini o‘zgartirish o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasi bo‘yicha buyruq bilan rasmiylashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ish haqini oshirish to'g'risidagi farmonlari munosabati bilan bazaviy tarif stavkalari o'zgargan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda Moliya vazirligining pedagog va rahbar xodimlarning bazaviy tarif stavkalari miqdorlarini o'zgartirish to'g'risidagi qo'shma buyrug'i chiqariladi.

6. Xodim o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining bir muassasasida boshqa lavozimga o'tgan taqdirda va shu munosabat bilan bazaviy tarif stavkasi o'zgarganda mehnat shartnomasi o'zgarishi tartibini belgilaydigan O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi qoidalari qo'llaniladi (VI bob, 3-§).

7. Oliy yoki o'rta maxsus, kasbiy ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslarni o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi umumta'lim, umumiy kasb va maxsus sikllar pedagogik lavozimlariga qabul qilishga yo'l qo'yilmaydi.

8. Oliy ta'lim muassasasi bakalavriatining oxirgi kursida o'qiyotgan shaxslar pedagoglik ishini amalga oshirishga qo'yilishi mumkin va ularga o'rta maxsus, kasbiy ma'lumotga ega bo'lgan tegishli lavozimdagi xodimning bazaviy tarif stavkasi singari bazaviy tarif stavkasi belgilanadi.

III. Ustamalar va qo'shimcha to'lovlar

9. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining yuqori kasb mahoratiga ega bo'lgan va o'quv-tarbiya jarayoni sifatini oshirishga aniq shaxsiy hissa qo'shayotgan o'qituvchilari va ishlab chiqarish ta'limi ustalari mehnatini moddiy taqdirlash va rag'batlantirish maqsadida ular uchun Direktor jamg'armasidan to'lanadigan, tegishli lavozim yoki malaka toifasidagi o'qituvchi, ishlab chiqarish ta'limi ustasi bazaviy tarif stavkasining 40 foizigacha miqdordagi har oylik ustamalar belgilanadi.

10. Bazaviy tarif stavkasiga qo'shimcha to'lovlarning quyidagi turlari belgilanadi:

guruh rahbarligi uchun — mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 35,2 foizi;

yozma ishlarni tekshirish uchun — mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 17,6 foizi;

o'quv va laboratoriya kabineti mudirligi uchun — mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 17,6 foizi.

Ko'rsatib o'tilgan qo'shimcha to'lovlar ushbu qo'shimcha to'lovlarni moliyalashtirish uchun maxsus ajratiladigan budjet mablag'laridan amalga oshiriladi.

10¹. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni to'lash uchun naqd pul berilishiga moddiy javobgar shaxsi (kassir) funksiyasini bajaruvchi ma'muriy-xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari yoki xo'jalik mudiriga eng kam ish haqining 100 foizi miqdorida lavozim maoshiga har oylik qo'shimcha haq belgilanadi.

11. Ushbu Nizom kuchga kirgan vaqtda amalda bo'lgan noqulay mehnat sharoitlarida ishlayotgan xodimlarga ustama haqlar saqlanib qoladi va ularning miqdori xodimning bazaviy tarif stavkasiga nisbatan foizlarda hisoblanadi.

IV. Mehnatga soatbay haq to'lash tartibi va shartlari

12. Pedagog xodimlar mehnatiga soatbay haq to'lash:

ketma-ket ikki oydan ortiq bo'lmagan davrda kasallik yoki boshqa sabablar bilan ishda bo'lmagan xodimlarning o'rnini bosish tartibida ishlab berilgan soatlar uchun haq to'lashda;

boshqa muassasalardan jalb etiladigan o'qituvchilar va boshqa mutaxassislarning pedagogik ishi uchun;

o'rnini bosish tartibida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari rahbarlari tomonidan o'tilgan o'quv soatlari uchun haq to'lashda qo'llaniladi.

13. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining pedagog xodimlari mehnatiga soatbay haq to'lash stavkalari miqdori belgilangan tartibda aniqlanadi.

14. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasining rahbar xodimi tomonidan asosiy lavozimning bir yilda 360 soatgacha hajmda o'qituvchi lavozimi bilan qo'shib olib borilishiga (o'quv yuklamasi yuritilishiga) yo'l qo'yiladi.

V. Professional ta'lim muassasalarida mehnatni normalashtirishni tashkil etish

15. Professional ta'lim muassasalari pedagog xodimlari mehnatini normalashtirish shaxsiy yillik ish rejalariga asoslangan.

Yillik ish rejasi o'quv, o'quv-metodik, ilmiy, ilmiy-metodik, tashkiliy-metodik, tashkiliy-pedagogik va ma'naviy-ma'rifiy tUSDagi asosiy tadbirlarni bajarish uchun zarur bo'lgan ish vaqti sarfi ko'rsatilgan holda ularning ro'yxatini o'z ichiga oladi.

O'qituvchilarning yillik ish rejasi bir yildagi 1540 soat miqdoridagi ish vaqtining jamlangan hisobidan kelib chiqadi.

Qonunchilik hujjatlariga muvofiq o'quv jarayoni o'qitishning modul (kredit-modul) tizimiga hamda "litsey — universitet" ta'limining uzluksizligini ta'minlashga asoslangan ta'lim muassasalarida shaxsiy ish rejasidagi tadbirlar ro'yxati va ularning minimal soatlari ushbu ta'lim muassasalarining o'quv-uslubiy jarayonini muvofiqlashtiradigan oliy ta'lim muassasasining Kengashi tomonidan belgilanadi.

Professional ta'lim muassasalarining o'qituvchilari uchun namunaviy yillik ish rejasi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan birgalikda ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Ishlab chiqarish ta'limi ustalarining yillik ish rejasi 40 soatlik ish haftasidan kelib chiqqan holda belgilanadi hamda o'quv yuklamasining nazariy va amaliy komponentlari, ishlab chiqarish ta'limini, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish uchun materiallar qismini tayyorlash bo'yicha taqsimlab chiqiladi. Ishlab chiqarish ta'limi ustalarining ish vaqti normativlari O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan kelishgan holda, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilanadi.

16. Yillik ish rejasi har bir pedagog xodim uchun yakka tartibda belgilanadi va kengaytirilgan pedagogik kengashda muhokama qilingandan keyin professional ta'lim muassasasi ma'muriyati tomonidan tasdiqlanadi.

Yillik (semestr) ish rejalarining bajarilishini nazorat qilish o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasi rahbari tomonidan amalga oshiriladi.

17. Shaxsiy yillik ish rejalarini ishlab chiqishda professional ta'lim muassasasi

rahbariyati o'qituvchining o'quv yuklamasi soatlari hajmini umumiy belgilangan normativlarga nisbatan kamaytirishi yoki ko'paytirishi mumkin. Bunda o'quv yuklamasining belgilangan normativlariga tuzatish kiritish hajmi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy rejadagiga nisbatan kamaytirish yoki ko'paytirish tomonga 30 foizdan ortiq bo'lishi mumkin emas.

18. Alohida hollarda professional ta'lim muassasalarida xodimning roziligi bilan kasblar (lavozimlar)ni birga qo'shib olib borishga, shuningdek o'zining asosiy ishi bilan birgalikda ishda vaqtincha bo'lmagan xodimlarning vazifalarini bajarishga yo'l qo'yiladi. Bunda lavozimlarni birga qo'shib olib borish bo'yicha ish vaqtining jami davom etishi ish vaqtining normal davom etish muddatining 50 foizdan ortiq bo'lishi mumkin emas.

19. Professional ta'lim muassasasining har bir o'qituvchisi va ishlab chiqarish ta'limi ustasi yillik ish rejasi bajarilishi to'g'risida pedagogik kengashda yoki professional ta'lim muassasasining boshqa kollegial organi majlisida har yili kamida bir marta hisobot beradi.

20. Mazkur Nizomning [16 — 19-bandlari](#) talablari qonunchilik hujjatlariga muvofiq o'quv jarayoni o'qitishning modul (kredit-modul) tizimiga hamda "litsey — universitet" ta'limining uzluksizligini ta'minlashga asoslangan ta'lim muassasalariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Vazirlar Mahkamasining
2008-yil 1-avgustdagi 165-son [qaroriga](#)
5-ILOVA

**O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasining direktor jamg'armasi
to'g'risida
NIZOM**

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligi va sifatini oshirish, professional tayyorgarlikni rag'batlantirish, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'qituvchilari va ishlab chiqarish ta'limi ustalarining mehnatiga haq to'lashning ularning o'quv va tarbiya jarayoniga, o'quvchilarda professional ko'nikmalar shakllanishiga qo'shgan shaxsiy hissasi bilan bevosita o'zaro aloqadorligini ta'minlash, kasb mahorati va malaka o'sishini rag'batlantirishni kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish va uni moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2008-yil 30-iyuldagi PQ-929-son [qaroriga](#) muvofiq ishlab chiqilgan hamda O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasining direktor jamg'armasi (keyingi o'rinlarda "Direktor jamg'armasi" deb yuritiladi) mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini belgilaydi.

2. Direktor jamg'armasi barcha o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida tashkil etiladi.

Mazkur Nizomning amal qilishi tatbiq etiladigan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalariga O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat ta'lim standartlariga

muvofiq o'quvchilarga ta'lim beradigan akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari kiradi.

3. Direktor jamg'armasi mablag'lari:

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining faqat yuksak kasb mahoratiga ega bo'lgan va o'quv-tarbiya jarayoni sifati oshishiga aniq shaxsiy hissa qo'shayotgan o'qituvchilari va ishlab chiqarish ta'limi ustalarining bazaviy tarif stavkalariga har oylik ustamalar belgilashga;

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlariga bir yo'la mukofotlar to'lash va moddiy yordam ko'rsatishga (alohida hollarda) yo'naltiriladi.

4. Rag'batlantirish chora-tadbirlarining samaradorligini oshirish uchun tuman, shahar, viloyat va respublikaning eng iqtidorli o'qituvchilari va ishlab chiqarish ta'limi ustalari ilg'or tajribasini va faoliyati samaradorligini ommaviy axborot vositalarida yoritish tavsiya etiladi.

II. Direktor jamg'armasini shakllantirish tartibi

5. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetida belgilangan tartibda nazarda tutiladigan budjet ajratmalari Direktor jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbai hisoblanadi.

6. Direktor jamg'armasi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasi mehnatga haq to'lash fondining 15 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda tashkil etiladi (imkoniyatlari cheklangan va jismoniy rivojlanishida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kollejlarda esa — 25 foizdan ortiq emas).

Direktor jamg'armasining mehnatga haq to'lash fondiga nisbatan foizlardagi miqdori moliya yili uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining tasdiqlangan parametrlarida nazarda tutilgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lashga budjet xarajatlari hajmidan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Direktor jamg'armasining mehnatga haq to'lash fondiga nisbatan foizlardagi miqdori respublikaning barcha o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bo'yicha yagona hisoblanadi.

7. Direktor jamg'armasining mehnatga haq to'lash fondiga nisbatan foizlardagi miqdori O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti qabul qilingandan keyin, tashkilotlarga ular xarajatlarining belgilangan hajmini ular e'tiboriga yetkazish yuzasidan qonunchilikda belgilangan muddatlarda, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi va Moliya vazirligining qo'shma xati bilan barcha o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari, vazirliklar (idoralar) va moliya organlariga yetkaziladi.

8. Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari ta'minotiga xarajatlarning smetalarini moliya organlarida ro'yxatdan o'tkazishda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasining tegishli organi moliya organiga belgilangan tartibda har bir o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasi bo'yicha ushbu xarajatlarga foiz nisbatida belgilangan miqdordan kelib chiqib hisoblangan Direktor jamg'armasi mablag'larini ajratib ko'rsatgan holda mehnatga haq to'lash xarajatlari yillik hajmini taqdim etadi.

9. Direktor jamg'armasi mablag'lari har bir o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasi ta'minoti xarajatlari smetasida nazarda tutiladi, ular 41 10 000 "Ish

haqi” moddasiga kiritiladi, 41 11 210 “Umumta’lim, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o’rnak ko’rsatgan xodimlarini rag’batlantirishning Direktor jamg’armasi mablag’lari” budget tasnifi kodi bo’yicha xarajatlar smetasiga hisob-kitoblarda alohida satrda ajratib ko’rsatiladi.

10. Direktor jamg’armasi mablag’lari hisobiga ustamalar, mukofotlar hamda moddiy yordam xarajatlarini moliyalashtirish belgilangan tartibda moliya organlari tomonidan ish haqi to’lash uchun mablag’larni moliyalashtirish bilan bir vaqtda amalga oshiriladi.

11. Direktor jamg’armasi mablag’lari hisobiga to’lanadigan belgilangan ustamalar, bir yo’la beriladigan mukofotlar va moddiy yordam summasi o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining mehnatga haq to’lash fondiga kiritiladi hamda ulardan qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ijtimoiy sug’urtasiga mablag’ o’tkaziladi. Jismoniy shaxslarning Direktor jamg’armasi hisobiga olingan daromadlariga soliq solish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

III. O’qituvchilar va ishlab chiqarish ta’limi ustalariga ustamalar belgilash, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari xodimlariga bir yo’la beriladigan mukofotlar to’lash va moddiy yordam berish tartibi

12. O’qituvchilar va ishlab chiqarish ta’limi ustalarining bazaviy tarif stavkalariga har oylik ustamalar belgilash, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari xodimlariga bir yo’la mukofotlar to’lash va moddiy yordam ko’rsatish to’g’risidagi qarorlar o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari huzuridagi o’rnak ko’rsatgan xodimlarni rag’batlantirish bo’yicha maxsus komissiyalar tomonidan qabul qilinadi.

Bunda o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limining yuqori va hududiy boshqaruv organlarining o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari huzuridagi o’rnak ko’rsatgan xodimlarni rag’batlantirish bo’yicha maxsus komissiyalar faoliyatiga hamda ular qabul qiladigan qarorlarga aralashuviga yo’l qo’yilmaydi, O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari huzuridagi o’rnak ko’rsatgan xodimlarni rag’batlantirish bo’yicha maxsus komissiya to’g’risidagi Nizomda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

13. O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari huzuridagi o’rnak ko’rsatgan xodimlarni rag’batlantirish bo’yicha maxsus komissiya tarkibi o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasi rahbarining buyrug’i bilan, kamida yetti kishidan iborat etib tasdiqlanadi va unga quyidagilar kiradi:

direktor — komissiya raisi;

direktorning ichki monitoring tashkil etilishi uchun mas’ul bo’lgan o’quv ishlari bo’yicha o’rinbosari — komissiyaning mas’ul kotibi;

pedagogik kengash tomonidan tayinlanadigan pedagogik jamoaning kamida ikki nafar vakili;

kasaba uyushmasi tashkiloti raisi;

vasiylik kengashi vakili;

ota-onalar qo’mitasining vakili.

14. O’qituvchilar va ishlab chiqarish ta’limi ustalarining bazaviy tarif stavkalariga har oylik ustamalar belgilash, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari xodimlariga bir yo’la mukofotlar berish va moddiy yordam ko’rsatish

ochiq muhokama qilish sharoitlarida va Direktor jamg'armasida nazarda tutilgan mablag'lar doirasida maxsus komissiyaning majlislarida qabul qilinadi.

Maxsus komissiya majlislari yarim yilda kamida bir marta, istisno hollarda esa zaruriyatga ko'ra o'tkaziladi. O'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalarining oldingi o'quv davridagi (semestr, o'quv yili) ishini baholash yakunlari bo'yicha hamda ayrim o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalari ish sifatidagi aniqlangan o'zgarishlar asosida belgilangan ustamalar miqdorlari maxsus komissiyaning qarori bilan qayta ko'rib chiqilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

Bazaviy tarif stavkalariga har oylik ustamalar belgilangan o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalari soni bir vaqtning o'zida ular umumiy sonining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

IV. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlariga belgilanadigan ustamalar, bir yo'la beriladigan mukofotlar va moddiy yordam miqdori

15. O'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalarining bazaviy tarif stavkalariga bazaviy tarif stavkasining 40 foizi miqdoridagi har oylik ustamalar:

kasb mahorati va o'quv jarayoniga shaxsiy hissa qo'shganligi, o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlari hisobga olingan holda chuqurlashtirilgan ixtisosli tabaqalashtirilgan o'qitishdagi yuksak samaradorlik va sifat uchun, o'quvchilarning bilimlarini reyting baholash natijalari bo'yicha aniqlanadigan tegishli guruhlar va o'quv fanlari uchun O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat standartlari bilan belgilangan bilimlar va ko'nikmalarning zarur hajmi o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga qarab, tarbiyaviy jarayonning, auditoriyadan tashqari ishlarning sifati va uni amalga oshirish samaradorligiga bog'liq ravishda ular tomonidan amalga oshiriladigan tarbiyaviy va auditoriyadan tashqari ish hamda o'quvchilarni insonparvarlik va yuksak axloqiylik ruhida tarbiyalashga shaxsan qo'shgan aniq hissasi uchun o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'qituvchilariga;

o'quvchilarning professional mayllari, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirganlik uchun, tegishli guruhlar uchun O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat standartlari bilan belgilangan professional bilim va ko'nikmalarning to'liq hajmi o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi darajasiga qarab, ular tomonidan amalga oshiriladigan tarbiyaviy va auditoriyadan tashqari ish hamda o'quvchilarni insonparvarlik va yuksak axloqiylik ruhida tarbiyalashga shaxsan qo'shgan aniq hissasi uchun kasb-hunar kollejlarning ishlab chiqarish ta'limi ustalariga belgilanadi.

16. Direktor jamg'armasi mablag'laridan o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalarining bazaviy tarif stavkalariga ustamalar miqdori o'quvchilarning o'zlashtirishiga, ularning professional malaka va ko'nikmalarni egallash darajasiga, ularning ta'lim standartlariga muvofiqligiga, shuningdek o'quv-tarbiya jarayoni tashkil etilishi sifatiga bog'liq bo'lgan o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalari faoliyatining reyting ko'rsatkichlari asosida O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari huzuridagi o'rnak ko'rsatgan xodimlarni rag'batlantirish bo'yicha maxsus komissiya to'g'risidagi Nizomga muvofiq belgilanadi.

17. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining rahbar xodimlariga, shuningdek o'z faoliyatini soatbay haq to'lash asosida amalga oshirayotgan o'qituvchilarga va ishlab chiqarish ustalariga mazkur har oylik ustamalar

belgilanmaydi.

18. O'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari va ishlab chiqarish ustalarining bazaviy tarif stavkalariga Direktor jamg'armasi hisobiga har oylik ustamalar har bir o'quv yilida oldingi o'quv yili ish yakunlari bo'yicha belgilanadi va har bir o'quv semestri yakunlari bo'yicha qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

19. O'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining ayrim o'rnak ko'rsatgan xodimlarini mukofotlash ularning o'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasini rivojlantirishga qo'shgan shaxsiy hissasi va o'z faoliyatida yuqori ko'rsatkichlarga erishganligi uchun ularga bir lavozim maoshigacha miqdorda bir yo'la mukofot to'lash yo'li bilan amalga oshiriladi. Mukofotlash o'quv yurti ish yakunlarini chiqarish natijalari bo'yicha amalga oshiriladi.

20. O'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlariga moddiy yordam ularning murojaatiga ko'ra yoki o'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasi kasaba uyushmasi tashkilotining tashabbusi bo'yicha favqulodda hollarda ko'rsatiladi (yaqin qarindoshi vafot etganda, og'ir jarohat olinganda, og'ir kasallikka chalinganda, tabiiy ofatdan zarar ko'rilganda va hokazo).

20. O'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida "Yoshlar yetakchisi" vazifasi yuklangan o'qituvchiga (xodimga) o'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasining direktor jamg'armasi mablag'lari hisobidan oliy ma'lumotli o'qituvchi bazaviy tarif stavkasining 50 foizi miqdorida har oylik ustama belgilanadi.

21. Maxsus komissiyaning o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalarining hamda "Yoshlar yetakchisi" vazifasi yuklangan o'qituvchining (xodimning) bazaviy tarif stavkalariga har oylik ustamalar belgilash, o'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlariga bir yo'la mukofotlar to'lash va moddiy yordam berish to'g'risidagi qarorlari asosida o'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasi rahbarining tegishli buyrug'i chiqariladi.

V. Direktor jamg'armasi mablag'larining sarflanishini nazorat qilish

22. Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi va uning hududiy boshqarmalari Direktor jamg'armasi mablag'laridan maqsadli foydalanilishini belgilangan tartibda tekshiradi.

23. Ustamalarni belgilash uchun taqdim etilgan ma'lumotlarning xolisligi, oshkoraligi va to'g'riligi hamda ularni belgilash tartibiga rioya qilinishi uchun maxsus komissiyalar rahbarlari javob beradilar.

4. Pedagog xodimlardan talab qilinadigan o'quv-me'yoriy hujjatlar.

So'nggi paytlarda ba'zi ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda o'qituvchilarning ish hujjatlari ko'pligi, hisobotlar to'ldirish ularning asosiy vaqtini egallayotgani va natijada o'qituvchi darsga puxta tayyorgarlik ko'ra olmayotgani to'g'risidagi asossiz fikr mulohazalar e'lon qilinmoqda.

Holbuki, Xalq ta'limi vazirligi pedagoglarni turli qog'ozbozlikdan xalos etish va ularning asosiy ish faoliyatini o'qituvchilar bilan ijodiy ishlashga qaratmoqda.

Xalq ta'limi hamda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish

vazirliklarining 2010-yil 27-maydagi 125-sonli qo'shma buyruqlariga asosan o'qituvchi tomonidan 6ta ish hujjatlari yuritiladi.

Yillik ish rejasi. Yil boshida bir marta tuziladi va direktor tomonidan tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 21-dekabrda 275-sonli qaroriga muvofiq, o'qituvchining yillik ish yuklamasi soatlarining nimalarga, qanday hajmda oyma-oy sarflanishini o'quv yili boshida vazirlik tomonidan berilgan namuna asosida rejalashtirib olinadi. Rejadagi soatlar asosan darsga tayyorgarlik ko'rish, daftar tekshirish, sinf jurnalini to'ldirish, dars kuzatish va o'quvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar (haftasiga 2 soatdan yil davomida 68 soat) olib borish ko'zda tutilgan.

Taqvim, mavzu, reja. Yil boshida bir marta tuziladi va direktor tomonidan tasdiqlanadi. Ushbu reja o'quvchilarga yil davomida ma'lum bir fan bo'yicha o'tiladigan mavzularni oldindan belgilab olish uchun tuziladi. Qolaversa ushbu taqvim mavzu rejasi vazirlik tomonidan berilgan namunaviy taqvim mavzu reja asosida bir o'quv yili uchun bir marta tuziladi.

Dars konspekti daftari. O'qituvchi tomonidan taqvim mavzu rejasiga muvofiq darsga kirishdan oldin (hafta boshlanishida, haftada bir marta bo'lishi ham mumkin) o'tiladigan mavzu yuzasidan o'qituvchi tomonidan 45 daqiqalik darsni qanday olib borishi, nimalar haqida gapirishi, qanday pedagogik texnologiyalar, o'yinlardan foydalanishi, nima topshiriqlar berishi qisqa tezis shaklida yoziladi. Bu reja parallel sinflar uchun bir marta yoziladi va maktabning o'quv ishlari bo'yicha direktori tomonidan vizual ko'rib chiqilib imzolanadi.

Sinf jurnali. Mazkur hujjat o'quvchiga Davlat ta'lim standartlariga muvofiq qanday mavzularda dars o'tilganligini, o'quvchilar davomatini qayd qilish va o'quvchilarning o'tilgan mavzular bo'yicha bilimlarini baholab borish uchun zarur.

Dars kuzatish daftari. Bu o'qituvchilarning o'z hamkasblari bilan o'zaro dars kuzatishlarini qayd etib borish daftari bo'lib, darsni kuzatish jarayonida to'ldiriladi. O'qituvchi kasbdoshining darsini kuzatish orqali uning yutuqlarini o'rganadi, o'zining faoliyatida qo'llaydi yoki darsning kamchiliklarini hamkasbiga bayon qilish orqali uning bartaraf etilishiga hissa qo'shadi. Har bir o'qituvchiga bir haftada atigi bir soat (45 daqiqa) dars kuzatishi belgilangan.

Tarbiyaviy ishlar rejasi (sinf rahbarlari uchun) Barcha o'qituvchilar bir xil lavozimda ishlaymaydi. Ayrim o'qituvchilarga sinf rahbarligi yuklatilgan bo'lib, ushbu lavozim uchun ularga asosiy oylik maoshlaridan tashqari eng kam oylik ish haqining bir barobari miqdorida qo'shimcha haq to'lanadi. Tarbiyaviy ishlar rejasi Respublika ta'lim markazi tomonidan berilgan namunaviy tavsiyalar asosida yil boshida ishlab chiqiladi. Sinf rahbari bitta daftarda sinfidagi o'quvchilar haqida ma'lumotlarni, ular bilan olib borilgan suhbatlarni, ota-onalar yig'ilishlarini qayd qilib boradi.

Direktor jamg'armasidan ustama olish uchun o'qituvchi hujjatlar to'plashi, hisobotlar topshirishi ko'zda tutilmagan. Aksincha bu vazifa o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosariga yuklatilgan.

Maktabning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari maktab qoshidagi Maxsus komissiya kotibi hisoblanadi. O'qituvchilarga ustama belgilash uchun komissiyaga taqdim etiladigan hujjatlar yig'ma jildi komissiya kotibi va komissiya

huzuridagi ekspert guruhi tomonidan shakllantirilishi lozim. Chunki «Umumta'lim muassasalari qoshidagi maxsus komissiya to'g'risida Nizom»ning 18-bandida belgilab berilgan, ustama haq olishga talabgor bo'lgan o'qituvchining faoliyati samaradorligiga oid tahliliy ma'lumotlar, jadvallar talabgorning o'zi tomonidan to'ldirilishi, ustama haq belgilashdagi shaffoflik prinsiplariga ziddir.

Mazkur hujjatlar o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va ularga haq to'lash uchun eng zarur bo'lgan hujjatlar hisoblanadi.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan tasdiqlangan o'qituvchilarning ish yuklamasini belgilash va taqsimlash to'g'risidagi yo'riqnomada turli tekshiruvlar jarayonida ulardan yuqorida qayd etilgan hujjatlardan boshqa hujjatlarni taqdim etish hamda hisobotlarni talab qilish qat'iyan man etilgan.

Nazorat savollari:

- 1. O'rta maxsus ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan so'nggi islohotlar haqida nimalar bilasiz?**
- 2. Xalqaro tajribalar haqida gapirib bering?**
- 3. O'rta maxsus ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan so'nggi islohotlar?**
- 4. Pedagog xodimlardan talab qilinadigan o'quv-me'yoriy hujjatlar?**

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yo'ldoshev J.F. Xorijda ta'lim (metodik qo'llanma) - Toshkent: 1995- yil
2. Ikromov A.B., Mxmudov S.Y., Anorqulova G.M. Germaniya: Ta'lim, ilmfan (metodik qo'llanma. Kasb mahorati jurnali -2004-yil. 2 son.
3. G.Anorqulkova, A. Karimov.Xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xos yo'nalishi uslub va tahlili. Xalq ta'limi ilmiy metodik jurnali. 2017-yil. 3-son.
4. A.Nosirov. Fransiyada talim sifati qanday nazorat qilinadi? – “Boshlang'ich ta'lim“ jurnali. 2019- yil. 12-son.
5. R.Ilashova. Amerika maktablarida.- , , Boshlang'ich ta'lim” jurnali. 2019-yil. 3-son.

IV. Internet saytlar

6. <http://natlib.uz>-Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi
7. <http://yedu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
8. <http://lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
9. <http://lib.bimm.uz> - Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi

10. <http://ziyonet.uz> - Ta'lim portali Ziyonet
11. <https://tarixinstituti.uz/uzb/Bo'limlar>
12. <http://www.istedod.uz> - "Iste'dod" jamg'armasi sayti
13. <http://www.yedunet.uz> - maktablar, o'quvchi va o'qituvchilar sayti.

**2-MAVZU: TA'LIM TASHKILOTLARIDA
HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH VA TARBIYAVIY
MUHITNI MUSTAHKAMLASH**

(2 soat)

REJA:

1. BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi.
2. Bolalar huquqini himoya qilish.
3. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish.

1. BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi.

BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi (1989-yil 20-noyabr) — bu BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan xalqaro shartnoma bo‘lib, 18 yoshgacha bo‘lgan har bir bolaning huquqlarini (yashash, rivojlanish, himoya va ishtirok etish huquqlari) belgilaydi va davlatlarga bu huquqlarni ta‘minlash bo‘yicha majburiyat yuklaydi, O‘zbekiston ham bu Konvensiyaga qo‘shilgan, bu yosh avlodni jamiyatning to‘laqonli a‘zosi sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Konvensiyaning asosiy mohiyati:

• **Universal qamrov:** Unda dunyoning barcha bolalarining huquqlari qamrab olinadi.

• **Asosiy huquqlar:** Bola huquqini himoya qilish, uning eng yaxshi manfaatlarini ta‘minlash, sog‘lom rivojlanishi, ta‘lim olishi, shaxsiy hayotiga daxl qilmaslik, fikrini erkin ifoda etish kabi huquqlarni kafolatlaydi.

• **Davlat majburiyatlari:** Davlatlar bolalarning huquqlarini himoya qilish va ta‘minlash uchun qonuniy, ma‘muriy va boshqa choralarni ko‘rishga majbur.

• **O‘zbekiston uchun ahamiyati:** O‘zbekiston yosh avlodni tarbiyalashga katta e‘tibor beradi, chunki aholining katta qismini yoshlar tashkil etadi; Konvensiya bu boradagi davlat siyasetining bir qismi.

Konvensiyaning muhimligi:

• Demokratik davlat qurishda yoshlarni faol va huquqiy jihatdan bilimli fuqarolar qilib tarbiyalash.

• Sogʻlom, maʼnan barkamol avlodni voyaga yetkazish kelajakni taʼminlash demakdir.

Bu Konvensiya “Inson huquqlari” fanining muhim boʻlimi boʻlib, har bir davlatda bolalarning huquq va erkinliklarini himoya qilishning huquqiy asosini tashkil etadi.

Bola huquqlari deganda - irqi, jinsi, tili, dini, tugʻilgan joyi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiyligi, ijtimoiy mavqeidan qatʼi nazar, har bir bola ega boʻlishi kerak boʻlgan huquq va erkinliklar. Xalqaro huquq normalarida 18 yoshga etmaganlarning barchasi bola deb tan olingan.

Mamlakatimizda bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanib, bugungi kunda uning toʻlaqonli qonunchilik asoslari yaratilgan deyishimiz mumkin.

Xususan, bola huquqlari va uning kafolatlarining huquqiy asoslari Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, ”Bola huquqlarining kafolatlari toʻgʻrisida”gi, “Vasiylik va homiylik organlari toʻgʻrisida”gi qonunlar va boshqa bir qator qonun hujjatlarida oʻz aksini topgan. Mazkur qonun hujjatlarida

- bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini taʼminlash;

- bolaning hayoti va sogʻligʻini, qadr-qimmatini muhofaza qilish;

- uning kamsitilishiga yoʻl qoʻymaslik;

- yosh avlodning jismoniy, intellektual, maʼnaviy va axloqiy kamol topishiga koʻmaklashish kabi davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlari belgilab berilgan.

Misol uchun, Oʻzbekiston Respublikasi Oila kodeksining 96-moddasida, ta-ona voyaga yetmagan bolalariga taʼminot berishi shartligi belgilangan boʻlib, voyaga yetmagan bolalariga taʼminot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota (ona)dan sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrugʻiga asosan aliment undiriladi.

Bola huquqlarining kafolati xalqaro doirada tan olinadigan hujjatlarda ham aks ettirib qoʻyilgan. 1989 yilning 20 noyabr sanasi BMTning “Bola huquqlari toʻgʻrisida”gi Konvensiyasi qabul qilingan kun hisoblanadi. Ushbu Konvensiya inson huquqlari tarixidagi eng muhim hujjatlardan biridir. Zero, mazkur sanadan eʼtiboran, bola huquqlari dunyoning qaysi mintaqasida buzilmasin, uni himoya qilish borasida xalqaro imkoniyat vujudga keldi. Konvensiya bola huquqlarini himoya qilishning kafolatlari mustahkamlangan birinchi xalqaro huquqiy hujjat hisoblanadi.

Umuman olganda bolalarning taʼlimga, mehnat qilishga va shunga oʻxshash birlamchi huquqlarini kafolatlash borasida amalga oshirilayotgan bir qator muhim islohotlar ham qayd etish oʻrinlidir.

Jumladan, mehnatga oid xalqaro hujjatlardan kelib chiqqan holda milliy qonunchiligimizda bolalar mehnatining ogʻir shakllari yoki ularning majburiy mehnati qatʼiy taqiqlandi. Natijada 2019 yilning 1 aprel kuni Xalqaro mehnat

tashkilotining hisobotida Jahon banki tomonidan O‘zbekiston paxta sanoatida bolalar va majburiy mehnatdan tizimli foydalanishga barham berilgani e‘lon qilindi.

Yoshlarimiz har doim o‘z iqtidorlarini namoyish etish uchun ta‘lim va tarbiya olishini kelajakda ham mustahkamlab qo‘yish maqsadida qonunchiligimizdagi bolalar huquqlari borasidagi o‘zgartirishlar yangilanayotgan Konstitutsiyada ham qat‘iy belgilab qo‘yilmoqda. Xususan, 44-moddada bolalar mehnatining bolaning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan, uning ta‘lim olishiga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi, deya belgilanmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga kiritilayotgan mazkur norma bolalar mehnatining og‘ir shakllaridan himoya qilish, ularni sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishishlari uchun muhim huquqiy kafolatdir.

Shuningdek, 50-moddada ta‘lim tashkilotlarida alohida ta‘lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta‘lim va tarbiya ta‘minlanishi belgilanmoqda. Unga ko‘ra, sog‘lig‘ida nuqsoni bo‘lgan bolalar faqatgina ixtisoslashgan maktablarda emas, hamma qatori umumiy maktablarda ham o‘qishi yo‘lga qo‘yilishi Yangi O‘zbekistonda inson qadri tamoyilining amaliy ifodasidir.

Shu bilan birga, 51-moddada fuqarolar davlat ta‘lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma‘lumot olishga haqli ekanligi norma sifatida kiritilmoqda. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad iqtidorli yoshlar uchun davlat granti asosida bakalavriat va magistratura bosqichida ta‘lim olish orqali hayotda o‘zlarini to‘laqonli namoyon etish imkoniyatini kengaytirishdir.

Bolalar huquqini himoya qilish.

Insonga bo‘lgan e‘tibor, birinchi o‘rinda bolaga bo‘lgan e‘tibordan boshlanadi. Aynan shuning uchun ham so‘nggi yillarda O‘zbekistonda bolalar majburiy mehnatga barham berilishi, Xalqaro mehnat tashkilotining majburiy mehnat to‘g‘risidagi konvensiya va uning bayonnomasi O‘zbekiston parlamenti tomonidan ratifikatsiya qilinganligi, bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan kafolatlarni kuchaytirish yuzasidan qonun hujjatlari takomillashtirilganini jahon hamjamiyati ijobiy e‘tirof etmoqda.

Bola huquqlari xalqaro hujjatlarda

O‘zbekiston istiqbolga erishgach, Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mintaqasida birinchilardan bo‘lib “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyani 1992 yil 9 dekabr kuni ratifikatsiya qildi. Birlashgan millatlar tashkilotining bolalar asosiy huquq va erkinliklarini belgilovchi hujjat – bu BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989 yil 20 noyabrda qabul qilingan va 1990 yil 2 sentyabrda kuchga kirgan “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyadir.

Konvensiya ustida taxminan 10 yil ishlandi va nihoyat 1989 yil 20 noyabr kuni Bola huquqlari deklaratsiyasining 30 yilligi sanasida “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiya ma‘qullandi. Konvensiyaning asosiy g‘oyasi – bolaning eng yaxshi manfaatlarini ta‘minlash bo‘lsa, uning qoidalari bolalar huquqlarini ta‘minlashi kerak bo‘lgan 4 ta asosiy talabga jamlangan. Omon qolish, rivojlanish, himoya qilish va jamiyatda faol ishtirokini ta‘minlash shular jumlasidan.

O‘zbekiston Respublikasi mazkur konvensiyani ratifikatsiya qilish bilangina cheklanmadi. Hozirgi kunga qadar “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyaga doir, bolalarning qurolli mojaralarda ishtirokiga taalluqli fakultativ protokol (Nyu-York, 2000 yil 25 may) va bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taalluqli fakultativ protokolni (Nyu-York, 2000 yil 25 may) ham ratifikatsiya qildi.

Konvensiya 54 ta moddadan iborat bo‘lib, unga binoan, bola mustaqil shaxs sifatida qabul qilinadi. Konvensiya bolani o‘ziga xos huquqlarga ega bo‘lgan shaxs sifatida tavsiflaydi. Va nihoyat, 2008 yilda O‘zbekiston parlamenti tomonidan “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi.

Ushbu qonunning 1-moddasida bolaga tushuncha berilgan. Ya‘ni, unga ko‘ra bola (bolalar) o‘n sakkiz yoshga to‘lgunga qadar bo‘lgan shaxs. Bola huquqlari – bolaga nisbatan inson huquqlari toifasi, irqi, jinsi, tili, dini, tug‘ilgan joyi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiyligi, ijtimoiy mavqeidan qat’iya nazar, har bir bola ega bo‘lishi kerak bo‘lgan huquq va erkinlikdir, xalqaro huquqda 18 yoshga yetmaganlarning barchasi bola deb tan olinadi.

Bolaning huquq va erkinliklari yangi Konstitutsiya himoyasida

Mamlakatimizda 2023 yil 30 aprel kuni o‘tkazilgan referendumda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinib, u Yangi O‘zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Bu borada bolaning huquq va erkinliklarini hamda qonuniy manfaatlarini ta‘minlash va kafolatlash yangi Konstitutsiyada mustahkamlanishi, bu masala davlat darajasiga ko‘tarilganligini yaqqol isbotidir. Jumladan, Bosh qomusimizning 44-moddasiga asosan bolalar mehnatining bolaning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan ta‘lim olishga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlandi.

Shuningdek, ilk bor Konstitutsiyaning 50-moddasida ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanishi alohida mustahkamlandi. Eng muhimi. yangi Konstitutsiyaga Oila, bolalar, Yoshlar deb nomlangan yangi bob kiritilib, unda bolalarning maqomi yanada kuchaytirildi.

Xususan, Bosh qomusimizning 77-modasida ota-onalar va ularning o'rini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetgunga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar. Mazkur moddada davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlanishi ham belgilab qo'yilgan.

Asosiy qonunimizning 78-moddasida esa bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyati ekanligi alohida ko'rsatilgan.

Mamlakatimizda bolalarga g'amxo'rlik qilish, ularni doimo qo'llab-quvvatlash, huquqlarini himoya qilishga davlat siyosati darajasida katta e'tibor qaratilayotgani bejis emas. Chunki yurtimizda bolalar hayotimiz davomchilari, kelajagimiz vorislari sifatida qadrlanib, mamlakatning katta xazinasini hisoblanadi.

Agar bolalarning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi va orzu intilishlarini ro'yobga chiqarishga zarur sharoitlar yaratilsa, ularda oldinga intilish, harakat bo'ladi. Konstitutsiyamizda o'z ifodasini topgan ushbu yangiliklar shubhasiz, farzandlarimizning har jihatdan sog'lom, hur fikrli avlod sifatida kamolga yetishishiga xizmat qiladi.

Inson huquqlari bola huquqlarini ta'minlashdan boshlanadi

O'zbekiston bolaning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro hujjatlarni va shu asosda qabul qilingan qonunlar ijrosini ta'minlashda bosqichma-bosqich, tizimli ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2017 yildan boshlab, davlatning bu boradagi faoliyati tubdan o'zgardi. Chunki, endilikda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar "Inson manfaati hamma narsadan ustun" degan tamoyilni amalda ro'yobga chiqarishga qaratildi. Bunga quyidagi misollar keltirish mumkin.

Masalan, bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishning institutsional va huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish maqsadida Prezidentimizning 2019 yil 22 apreldagi tegishli qarori bilan "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiya talablarini har tomonlama hayotga tatbiq

etish, O‘zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlarida nazarda tutilgan bolalarning huquqlarini amalda kafolatlash, ularning jismoniy, intellektual va ma’naviy yetuk avlod bo‘lib yetishishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) o‘rinbosari – Bola huquqlari bo‘yicha vakil lavozimi tashkil etildi.

Shuningdek, bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish, bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlash va ushbu sohadagi xalqaro majburiyatlarni bajarishning ta’sirchan tizimini yaratish maqsadida 2020 yil 29 may kuni “Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarori qabul qilindi. Hujjatda Bola huquqlari bo‘yicha vakilning asosiy vazifalari va faoliyati yo‘nalishlari aniq belgilab berildi.

Prezidentimizning 2021 yil 9 avgustdagi “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon bilan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) o‘rinbosari — Bola huquqlari bo‘yicha vakil lavozimi tugatilib, Oliy Majlisning Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) instituti ta’sis etildi.

Ushbu farmon bilan:

Birinchidan, Bola huquqlari bo‘yicha vakil o‘z vakolatlarini mustaqil hamda davlat organlari, ularning mansabdor shaxslariga tobe bo‘lmagan tarzda amalga oshirishi, o‘z faoliyatida Oliy Majlis palatalariga hisobdor ekanligi;

Ikkinchidan, Bola huquqlari bo‘yicha vakil Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan besh yil muddatga saylanishi;

Uchinchidan, Bola huquqlari bo‘yicha vakil lavozimiga nomzod O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko‘rib chiqishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kiritilishi mustahkamlandi.

Bola huquqlari bo‘yicha vakilga — bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ishonchli himoya qilinishini ta’minlash, ularning ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lishining oldini olish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar, ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalari va tarbiya koloniyalari faoliyatida bola huquqlariga rioya etilishini monitoring qilish vakolati berildi.

Bola huquq va erkinliklari qonun himoyasida

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada bolaning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini kafolatlash va ta’minlash qonunchilikda o‘z ifodasini topmoqda. Masalan, 2020 yilda parlament tomonidan “Bola huquqlarining qo‘shimcha kafolatlari belgilanishi munosabati bilan O‘zbekiston

Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun bilan bir qator qonunlarimizga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi.

Jumladan, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 11-moddasiga "Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganda, shu jumladan, ota-ona (ulardan biri) yoki ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslar bolaga ta'minot, tarbiya, va ta'lim berish bo'yicha majburiyatlarini bajarmaganda yoki lozim darajada bajarmaganda yohud ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilganda bola o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini so'rab vasiylik va homiylik organiga, shuningdek boshqa davlat organlariga mustaqil ravishda murojaat qilishga haqli ekanligi hamda bunday murojaat bola to'liq muomala layoqatiga ega bo'lmaganligi sababli ko'rib chiqmasdan qoldirishga yo'l qo'yilmasligi to'g'risida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Qonunning 15-moddasining matni esa oilada har qanday masala hal qilinayotganda bola o'z fikrini ifoda etishga, shuningdek har qanday sud muhokamasi yoki ma'muriy muhokama jarayonida so'zlashga haqli ekanligi belgilanib, bunda qaror qabul qilishga vakolatli bo'lgan organlar va mansabdor shaxslar bolaning manfaatlariga taalluqli masalalarni hal qilishda bolaning fikrini, uning yoshidan qat'iy nazar, ko'rib chiqishi hamda bolaning eng ustun manfaatlaridan kelib chiqqan holda qarorlar qabul qilishi to'g'risida tahrir qilindi.

Oila kodeksining 68-moddasi qaror qabul qilishga vakolatli bo'lgan organlar va mansabdor shaxslar bolaning manfaatlariga taalluqli masalalarni hal qilishda bolaning fikrini, uning yoshidan qat'i nazar, ko'rib chiqishi hamda bolaning eng ustun manfaatlaridan kelib chiqqan holda qarorlar qabul qilishi kerakligi to'g'risida yangi mazmundagi jumla bilan to'ldirildi. "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga esa voyaga yetmagan shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishning o'ziga xos xususiyatlari deb nomlangan yangi 241-modda kiritildi.

Mazkur moddaga binoan voyaga yetmagan shaxslar o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi masalalari yuzasidan davlat organlariga, tashkilotlarga yoki ularning mansabdor shaxslariga ushbu qonunda belgilangan tartibda mustaqil ravishda murojaat berishga haqli ekanligi belgilangan.

Shu bilan birga, mazkur moddada davlat organlari, tashkilotlar yoki ularning mansabdor shaxslari tomonidan voyaga yetmagan shaxsning murojaatlarini ko'rib chiqish uning qonuniy vakillari, shuningdek vasiylik va homiylik organlari ishtirokida amalga oshirilishi mumkinligi hamda voyaga yetmagan shaxslar to'liq

muomala layoqatiga ega bo'lmagani sababli ularning murojaatlarini ko'rib chiqmasdan qoldirishga yo'l qo'yilmasligi mustahkamlangan.

Joriy yilning aprel oyida "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinib, bolaning huquq va erkinliklari yanada kuchaytirildi.

Ushbu qonun xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini tazyiq va zo'ravonlikdan ishonchli himoya qilishning institutsional hamda huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirishga, bolalar orasida nazoratsizlikning va ular tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishga, shuningdek nogironligi bo'lgan bolalarni hamda ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Bola huquqlari bo'yicha vakil to'g'risida qonun loyihasi

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini so'zsiz va to'liq amalga oshirish, unda mustahkamlangan ustuvor prinsiplarni Yangi O'zbekiston ulug'vor g'oyasiga hamohang tarzda ro'yobga chiqarish, davlat organlarining faoliyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda yo'lga qo'yish, fuqarolar o'z hayotida xalq Konstitutsiyasi ruhini yaqqol his etib turishini ta'minlash maqsadida 2023 yil 8 may kuni Prezidentimizning "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilingan edi.

Mazkur farmonda Oliy Majlis palatalariga bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, bolaning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'liq rivojlanishi uchun munosib shart-sharoitlarni yaratish maqsadida "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili to'g'risida"gi qonun loyihasini qabul qilish tavsiya etilgan.

Joriy yilning oktyabr oyida Oliy Majlis Qonunchilik palatasining bir guruh deputatlari tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida "Bola huquqlari bo'yicha vakil (Bolalar ombudsmani) to'g'risida"gi qonun loyihasi Qonunchilik palatasiga kiritilib, qonun loyihasi Qonunchilik palatasi deputatlari tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Mazkur qonun loyihasida Bola huquqlari bo'yicha vakilning maqomi, uning huquqlari, majburiyatlari, vazifalari va vakolatlari hamda Bola huquqlari bo'yicha vakilning davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlar, fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro munosabatlari belgilanmoqda.

Bola huquqlari bo'yicha vakilga davlat organlari va barcha mansabdor shaxslar tomonidan bola huquqlari hamda erkinliklari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlament nazoratini ta'minlash vakolatlari hamda bola huquqlari bo'yicha vakil o'z vakolatlarini mustaqil hamda davlat organlari va mansabdor shaxslarga tobe bo'lmagan tarzda amalga oshirishi belgilanmoqda.

Hozirgi kunda Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasi tomonidan mazkur qonun loyihasi ikkinchi o'qishga tayyorlanmoqda. Ushbu qonuning qabul qilinishi bilan O'zbekistonda bolaning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning kafolatlari kuchayadi. Bola huquqlari bo'yicha vakil, unga qonun bilan berilgan vakolat doirasida bolaning konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarishga va ularni amalda ta'minlashga mas'ul bo'lgan tegishli tashkilotlarning faoliyati ustidan samarali parlament nazoratini o'rnatishga xizmat qiladi.

2. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish.

4-modda. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari

Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

ochiqlik va shaffoflik;

tizimlilik;

davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;

korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;

javobgarlikning muqarrarligi.

5-modda. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash.

6-modda. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va

boshqa dasturlar

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati davlat dasturlari va boshqa dasturlar asosida amalga oshirilishi mumkin.

Davlat dasturlari va boshqa dasturlar ushbu Qonunning qoidalari samarali ijro etilishini ta'minlash, korrupsiyaning holati hamda tendensiyalaridan kelib chiqqan holda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha kompleks va tizimli chora-tadbirlar ko'rish maqsadida ishlab chiqiladi hamda amalga oshiriladi.

2-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlar

7-modda. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;

O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni qonunchilikka muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshiradi.

8-modda. O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashi va uning hududiy kengashlari

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashi (bundan buyon matnda Milliy kengash deb yuritiladi) tashkil etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy kengashlar (bundan buyon matnda hududiy kengashlar deb yuritiladi) qonunchilikda belgilangan tartibda tashkil etiladi.

Milliy kengashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va hamkorligini ta'minlash;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-

tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo'yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligi oshirilishini ta'minlash;

korrupsiyaning holati va tendensiyalari to'g'risidagi axborotni yig'ish hamda tahlil etish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohadagi mavjud tashkiliy-amaliy va huquqiy mexanizmlarning samaradorligini baholash;

korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish va ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlash;

hududiy kengashlar faoliyatini muvofiqlashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi Milliy kengashning ishchi organidir.

81-modda. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi o'z vakolatlari doirasida:

korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini shakllantiradi va amalga oshiradi;

har yili O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida milliy ma'ruza tayyorlaydi hamda uni ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga kiritadi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining va Senatining korrupsiyaga qarshi kurashishga daxldor bo'lgan qo'mitalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining tegishli qo'mitasi, xalq deputatlari viloyatlar hamda Toshkent shahar, tuman va shahar Kengashlarining korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyalari bilan hamkorlik qiladi;

korrupsiyaga oid jinoyatlarni, birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlariga va xalqaro obro'siga putur yetkazadigan korrupsiyaga oid jinoyatlarni tergov qilish natijalarini kompleks tahlil qiladi, uning yakunlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga axborot beradi;

korrupsiyaga oid jinoyatlar tufayli jamiyat va davlat manfaatlariga yetkazilgan zararning o'rni to'liq qoplanishiga erishilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o'tkazish tizimi samaradorligini tahlil qiladi, ushbu tizimni

takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritadi;

fuqarolik jamiyati institutlari bilan birgalikda korrupsiyaning darajasini, shu jumladan hududlar, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa sohalar kesimidagi darajasini baholovchi Korrupsiyani idrok etish milliy indeksini tuzishni tashkil etadi;

davlat xaridlari sohasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish maqsadida davlat buyurtmachisining ISO: 37001 korrupsiyaga qarshi standartni qo'llashini nazarda tutuvchi talabni belgilaydi;

joylarda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan hududiy dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini tashkil etadi;

korrupsiya holatlariga doir materiallarni qonunchilikda belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalariga taqdim etadi;

vazirliklar va idoralarning korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi, davlat organlarining, ommaviy axborot vositalarining, fuqarolik jamiyati institutlarining va boshqa nodavlat sektor vakillarining ushbu masalalar bo'yicha samarali hamkorligini tashkil etadi;

ijro hokimiyati va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda ularning mansabdor shaxslari qarorlarida korrupsiya belgilari aniqlangan hollarda ularning ijrosini to'xtatish yoki bekor qilish to'g'risida ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritadi.

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

12-modda. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi o'z vakolatlari doirasida:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etadi;

aholi o'rtasida jamiyatda huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ'ibotga doir faoliyatni amalga oshiradi hamda muvofiqlashtiradi;

ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ta'lim va tarbiyaga doir chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

normativ-huquqiy hujjatlardagi hamda ularning loyihalaridagi korrupsiya uchun shart-sharoitlar yaratadigan qoidalar va normalarni aniqlash maqsadida ushbu hujjatlar va loyihalarning tahlilini amalga oshiradi;

korrupsiyaga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha choralar ko'radi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda

ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;
korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.
O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish

16-modda. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish

Davlat organlari va boshqa tashkilotlar korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar ko‘radi, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir tushuntirish ishlarini amalga oshirish, huquqiy tarbiya va ta’limni, ilmiy-amaliy tadbirlarni tashkil etish, o‘quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlarni ishlab chiqish yo‘li bilan zarur chora-tadbirlar ko‘radi.

17-modda. Davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish

Davlat organlari va boshqa tashkilotlar o‘z mansabdor shaxslarining hamda boshqa xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy savodxonligini, shu jumladan huquqiy bilimlari darajasini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘radi.

18-modda. Ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta’lim va tarbiya

Ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta’lim va tarbiya belgilangan davlat ta’lim standartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Davlat ta’limni boshqarish organlari va ta’lim muassasalari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini inobatga olgan holda ta’lim muassasalarida huquqiy ta’lim va tarbiyaga, mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning sifatini oshirishga, ta’lim dasturlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi.

4-bob. Korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar

19-modda. Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar

Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

davlat organlari faoliyatining ochiqligini va ularning hisobdorligini ta’minlash, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining va boshqa xodimlarining o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi yuzasidan mas’uliyatini kuchaytirish;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlarining faoliyati ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

davlat organlarining va ular xodimlarining faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik;

davlat organlarining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan o'z mansab yoki xizmat majburiyatlarining bajarilishi samaradorligi mezonlarini, standartlarini va uning sifatini baholash tizimlarini joriy etish;

davlat organlari xodimlarining kasbiy hamda xizmatdan tashqari faoliyatdagi odob-axloqning yagona prinsiplari va qoidalarini belgilovchi odob-axloq qoidalarini samarali amalga oshirish;

davlat organlari xodimlari manfaatlarining to'qnashuvini hal qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularga rioya etilishi yuzasidan monitoring o'tkazilishini ta'minlash;

davlat organlari xodimlarining huquqiy maqomini belgilash, xizmatni o'tashning shaffof tartibini o'rnatish, shaxsiy va kasbiy sifatlar, ochiqlik, beg'arazlik, adolatlilik va xolislik prinsiplari asosida tanlov bo'yicha saralash hamda xizmatda ko'tarilish tizimini joriy etish;

davlat organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi, murojaatlarning to'liq, xolisona va o'z vaqtida ko'rib chiqilishi, ular tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari, erkinliklarini tiklash hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha o'z vakolatlari doirasida choralar ko'rilishi ustidan nazoratni ta'minlash;

davlat organlari faoliyatida korrupsiyaning oldini olishga doir tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan ushbu organlar tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholagan holda muntazam ravishda monitoring o'tkazish;

normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini tashkil etish;

davlat organlarining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarining samarali ijtimoiy himoya qilinishini, moddiy ta'minot olishini va rag'batlantirilishini ta'minlash.

Qonunchilikda davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin.

Davlat organlarining va o'zga tashkilotlarning mansabdor shaxslari hamda boshqa xodimlari qonunchilikka rioya etishi, o'z mansab yoki xizmat majburiyatlarini beg'arazlik bilan, xolisona, vijdonan, odob-axloq qoidalariga rioya etgan holda bajarishi hamda korrupsiyaga oid biror-bir huquqbuzarlikni sodir etishdan yoki bunday huquqbuzarliklarni sodir etish uchun shart-sharoitlar yaratadigan boshqa har qanday harakatlardan o'zini tiyishi shart.

Nazorat savollari:

1. BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi haqida gapiring?
2. Bolalar huquqini himoya qilish?
3. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish?

IV.AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-AMALIY MASHG‘ULOT: INKLYUZIV TA‘LIMNING NAZARIY ASOSLARI VA HUQUQIY KAFOLATLARI (2 soat)

REJA:

1. Inklyuziv ta‘limning nazariy asoslari va huquqiy kafolatlari.
2. Inklyuziv ta‘lim konsepsiyasi, modellari va strategiyalari.
3. Turfa xil ta‘lim oluvchilarni qo‘llab-quvvatlashni shakli, metodi va vositalari.
4. Inklyuziv ta‘limda pedagogning rolini kuchaytirish yo‘llari.

1. Inklyuziv ta‘limning nazariy asoslari va huquqiy kafolatlari.

Jahon ta‘limi amaliyotida ta‘lim oluvchilar ehtiyojlariga moslashuvchan o‘quv muhitini yaratish, variativ o‘quv dasturlaridan foydalanishga bo‘lgan ehtiyoj kun sayin ortmoqda. BMT ning ta‘lim sohasidagi siyosati yo‘nalishlaridan biri bolalarning alohida ta‘lim ehtiyojlari xilma-xilligini hisobga olgan holda ta‘lim berishni nazarda tutadigan inklyuziv ta‘lim g‘oyalarini ishtirokchi davlatlar tomonidan keng amalga oshirilishini ta‘minlash hisoblanadi. YUNESKOning inson huquqlari va erkinliklarini ta‘minlashga qaratilgan dasturlari alohida ta‘lim extiyoji bo‘lgan bolalar va kattalar uchun xavfsiz va qulay ta‘limni ta‘minlashga qaratilgan me‘yorlar, standartlar hamda intellektual hamkorlikni modernizatsiyalashga yo‘naltirilmoqda. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilangan ijtimoiy tenglik qoidalarini amalga oshirishda ta‘limning barcha uchun ochiqligini, gender jihatdan tenglikka asoslanganligini ta‘minlovchi mexanizmlarini amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda inklyuziv ta‘limni ta‘lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda fan, ta‘lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta‘minlash asosida tashkil etishning huquqiy – me‘yorlari ishlab chiqilgan. “Alohida ta‘lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta‘limni tashkil etish maqsadida ta‘lim muassasalari moddiy texnika bazasini mustahkamlash, o‘quv dasturlarini adaptivlashtirish, sog‘lomlashtiruvchi sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish hamda bu jarayonga mos yuqori

malakali kadrlar tayyorlash” kabi muhim vazifalar belgilandi . Boshlang‘ich ta’limda o‘qitish sifatini yaxshilash, o‘quvchilarning imkoniyatlariga mos, davlat ta’lim standartlari me’yorlari inobatga olingan o‘quv muhitini samarali tashkil etish, bu jarayonda tashkilotlar va jamoat institutlari hamkorligini kuchaytirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur ijtimoiy-pedagogik masalalarni hal etishda ta’lim, sog‘liqni saqlash va mahalla tashkilotlarining imkoniyati cheklangan bolalarni sifatli ta’lim xizmatlari bilan ta’minlash borasidagi o‘zaro manfaatli hamkorligi talab etiladi. Bu esa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida metodik mahorat, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning klasterli yondashuvlari, tashkiliy omillari, pedagogik-psixologik shart-sharoitlari, inklyuziv sinflarda darslarni tashkil etishga qo‘yiladigan didaktik talablarni aniqlashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda PF-5270-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 29-aprelda PF5712-son “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrda PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvarda PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, farmonlari, 2020-yil 13-oktyabrda PQ-4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrda 638-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ huquqiy xujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori va boshqa hujjatlarda kadrlar masalasi, ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, jarayonni metodik va didaktik ta’minlash vazifalari belgilab berilgan.

Inklyuzivlik-inglizcha so‘z bo‘lib, inklusif- qo‘shish, birlashtirish ma’nolarini anglatadi. Mazkur atama alohida ehtiyojga ega bo‘lgan o‘quvchilarni umumta’lim maktablarida sog‘lom bolalar bilan qo‘shib birgalikda o‘qitish jarayonini ifodalaydi.

Inklyuziv ta’lim – o‘quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o‘zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta’lim jarayonidir. Shuningdek, inkluziv ta’lim davlat siyosati bo‘lib, nogiron va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etish, inklyuziv ta’limga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat’i nazar, ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo‘naltirilgan umumta’lim jarayoniga qo‘shishni ifodalovchi ta’lim tizimidir.

Inklyuziv ta’lim jismoniy va psixik imkoniyatlari cheklangan o‘quvchilarni sog‘lom o‘quvchilar bilan birgalikda o‘qitishni anglatadi. Inklyuziv ta’lim bir qator

muhim tamoyillarga tayanilgan holda amalga oshiriladi.

Jumladan,

→ inson qadri uning layoqatlari va yutuqlariga bog‘liq emasligi prinsipi;

→ har bir shaxsning his qilish va o‘ylash layoqatiga egaligi prinsipi;

→ har bir shaxsning muloqot qilish va tinglash huquqiga egaligi prinsipi;

→ har bir shaxsning bir-biriga kerakliligi prinsipi;

→ shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim jarayonining aniq hamkorlik asosida amalga oshirilishi prinsipi;

→ har bir o‘quvchining o‘z tengdoshlarining qo‘llab-quvvatlovi va do‘stona munosabatlariga ehtiyojmandligi prinsipi;

→ turli-tumanlik o‘quvchi hayotining barcha jabhalarini rivojlantirishni ta‘minlashi zarurligi prinsipi kabilar.

Inklyuziv ta‘limning maqsadi - alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo‘llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to‘siqsiz moslashtirilgan ta‘lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to‘laqonli uyg‘unlashuviga xizmat qiladigan sifatli ta‘lim berishni ta‘minlashdan iborat.

Inklyuziv ta‘limning vazifalari quyidagilardan iborat:

→ rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo‘lishni ta‘minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;

→ jamoatchilik hamda ta‘lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar muammolariga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish;

→ ta‘lim jarayonida sog‘lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;

barcha o‘quvchilar uchun davlat ta‘lim standartlariga muvofiq maktabgacha, umumiy o‘rta, kasb-hunar va oliy ta‘lim dasturlarini o‘zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;

→ o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko‘nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

→ alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta‘lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta‘lim-tarbiya metod va vositalarini qo‘llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologikpedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash.

O‘zbekistonda nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash,

tibbiyijtimoiy yordam ko'rsatish, hayot sifatini yaxshilash tizimini takomillashtirish, ularga ta'lim olish va ishga joylashishda har tomonlama ko'maklashish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilib, xalqimizga xos bo'lgan mehr-shafqat hamda ezgulik tuyg'ularini hisobga olgan holda nogironlarning muhim ehtiyoj va talablariga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 1-dekabrda PF-5270-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 29-aprelda PF5712-son "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrda PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 13-oktyabrda PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktyabrda 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda PF-60-sonli «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish bo'yicha qator normativhuquqiy hujjatlar qabul qilindi.

2. Inklyuziv ta'lim konsepsiyasi, modellari va strategiyalari.

Mamalakatimizda yosh avlodni mustaqillikka o'rgatish borasida keng qamrovli amaliy ishlar bajarishga kirishildi. Bu masala O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida alohida o'rin egallaydi. Zero, har ikkala hujjatda o'sib kelayotgan yosh avlodning ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda mustaqil ishtirok etishi, ijtimoiy jarayonga faol ta'sir etishi, o'z qadr-qimmatini xis qilishi, o'zida erkin fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi dolzarb vazifalar sifatida belgilab berilgan. o'sib kelayotgan yosh avlodda shaxsiy sifatlar, xususan, mustaqillikni shakllantirish nafaqat ta'lim muassasalari va tarbiya maskanlari balki umumjamiyat vazifasiga aylanib, davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. O'z navbatida o'zlari ham deyarli ilmning turli sohalarini mustaqil holda o'rganganlar, jumladan, bobokalonimiz Alisher Navoiy o'zining "Majolisun nafois" asarida mustaqil mutolaa qilish yo'li bilan ilm cho'qqilarini egallagan donishmandlardan ko'plarining nomlarini zikr etganlar. Mazkur asarda alloma Mir Murtozning mustaqil holda ilm soxibi bo'lib etishganligini ta'riflab: "Mir Murtoz

yoshdan ilm bilan mashg'uldir... Kecha tong otguncha va kunduz oqshom bo'lguncha ilm mutolaa qilur erdi", - deydi. O'z navbatida, A.Navoiy ham ilm sirlarini mustaqil holda o'rgangan. U o'zining "Muhokamatul lug'atayin" asarida yoshlik chog'ida qariyb 50 mingdan ortiq baytlarni mustaqil holda yod olganligini alohida takidlaydi. Ilg'or pedogoglar, jumladan I. G. Pestalotsi, J. J. Russo, A. Disterverglar ham bolalarda mustaqillikni tarbiyalashga alohida e'tibor berganlar. Ular o'z qarashlarida bolada shaxs sifatlarini rivojlantirishga mehnat tarbiyasining samarali ta'sirini ta'kidlaganlar. I.G.Pestalotsining «Lingard va Gertruda», «Gertruda o'z bolalarini kanday o'qitdi», «Kuzatish alifbesi», «Oqqush ko'shig'i» asarlari shular jumlasidandir. U «Lingard va Gertruda» asarida inson nimaiki ko'lga kiritsa, bu halol mehnati orqali roxat ko'rishini Glyufi faoliyatida yoritib beradi. Pestalotsining g'oyaviy ta'limotiga ko'ra bolani har tomonlama erkin rivojlantirish bu maktabning maqsadi edi. Jan Jak Russoning «Emil yoki tarbiya to'g'risida» nomli romanida ozod yangi odamni tarbiyalash yo'llarini ko'rsatdi. Russo bola tug'ilgan kundan boshlab iste'dodining rivojlanishi uchun yaxshi sharoit yaratish to'g'risida g'amxo'rlik kilish zarurligini aytadi. «Tarbiyachi bolaga o'zining fikr - muloxazalarini, tayyor axloqiy koidalarini majburan qabul qildirmasligi tabiatiga ko'ra, uning o'sishi va erkin rivojlanishiga imkoniyat yaratishi kerak. Tabiiy tarbiya bu – erkin tarbiyadir. Bola o'zining zararli noto'g'ri ishlari natijasini his kilishi lozim», - deb ta'kidlaydi. R. Mavlonova: "Bolalarni qiyinchiliklarni engishga, qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida matonat va qat'iyat bilan kirishishga, boshlangan ishni chala tashlab ketmay, balki oxiriga etkazishga o'rgatish lozim. Bu o'rinda ijobiy emotsiyalar: Mehnatdan quvonish, lazzatlanish va qoniqish xissiyotlarining namoyon bo'lishi juda muximdir.

Mehnatda turli psixologik xolat, aktivlik, diqqatning jamlanishi, qiziqish, mustaqil fikr yuritish, qoniqmaslik kabi tuyg'ular namoyon bo'ladi", - deb yosh avlodda mehnat tarbiyasi orqali mustaqillikni tarbiyalash g'oyasini ilgari suradi. O.Musurmonova ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishni bir necha turlarga bo'ladi. SHulardan biri sifatida ... insonparvarlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, muruvvat, saxovat, adolat, tinchliksevarlik, tenglik, do'stlik, o'z-o'zini anglash, erkinlik kabi ijtimoiy-siyosiy mazmundagi qadriyatlardan iborat ekanligini keltiradi. Ma'lumki, zamonaviy milliy pedagogika yo'nalishida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqdaki, ulardan ko'zlangan maqsad-uzluksiz ta'lim tizimining har bir bosqichida barkamol, mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash uchun zaruriy pedagogik, psixologik shart-sharoitlarni yaratish, usul, vosita va imkoniyatlarni taxlil qilish orqali ularni zamonaviylashtirish, ta'lim texnologiyalaridan eng samarali va maqbulini tanlash va amaliyotga joriy qilishdir.Uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'inlaridan biri-maktabgacha ta'lim. Maktabgacha ta'lim kanchalik o'z maqsad va vazifalarini to'laqonli bajarsa, keyingi bosqich ta'lim

jarayonidan kutilayotgan natija shunchalik erishimli va samarali bo'ladi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da: "Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga qiziqish xissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi"- deb ta'kidlangan.

Mustaqillik o'zi nima?, insonning mustaqilligi qachon namoyon bo'ladi? yoki qanday sharoitda va muhitda inson o'zini erkin va xur xis qiladi va bu xurlik unga nima beradi? kabi savollarning javobi tadqiqotning ushbu bobi mazmunini tashkil qiladi. Demak, inson uchun mustaqillik bu uning o'zligini anglashi va o'zini har tomonlama namoyon qilishi deb e'tirof etish mumkin. "Inson" deb atalmish ijtimoiy tushuncha zamirida bola shaxsini ko'radigan bo'lsak, unda bolaning mustaqilligiga ta'sir etuvchi omillar, vositalar va shartsharoitlar oila va maktabgacha ta'lim muassasidagi muhitning nechog'lik boladagi mavjud qiziqish, mayl, imkoniyatlarga yo'naltirilganligiga bog'liqdir. ya'ni mustaqillikning namoyon bo'lishi uchun zaruriy sharoit bu ta'limiy-tarbiyaviy jarayonning bolaga yo'naltirilishi. Bu esa bola tarbiyalanayotgan muhitning insonparvarlashtirilgani demakdir. Ta'lim va tarbiya jarayonining markazida bola shaxsi turar ekan, kutilayotgan natija ham bola egallagan bilim, ko'nikma va malakalar darajalari bilan tavsiflanadi. Insonparvarlashtirilgan o'quv-tarbiyaviy jarayon boladagi turfa imkoniyatlar, cheksiz qiziqishlarning namoyon bo'lishining zaruriy shartlaridandir. Insonparvarlikning inson erkinligi, uning qadr-qimmati, tarbiyasiga bog'liqligi SHarq Uyg'onish davrida Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar ta'limotlarida o'z aksini topgan. Abu Nasr Farobiy insonparvarlik, aniq maqsad sari intilish baxt-saodatga eltuvchi ekanligini ta'kidlaydi: "Inson baxt-saodat nimadaligini tushungan bo'lsa-yu, unga erishishni maqsad qilib olmasa, g'oya va hoxishiga aylantirmagan bo'lsa, unga nisbatan ozgina bo'lsa-da, shavq-zavq sezmasa, istak va muloxazasini, kuch va quvvatini boshqa narsalarga sarflasa bu qilmishlari yomon va noo'rindir... Mustaqillikning ildizi insonparvarlik, ong va faoliyat birligi, ruhiyat, nazariya va amaliyot bog'liqligi, tarbiya (uning barcha yo'nalishlari: aqliy, ahloqiy, jismoniy, xuquqiy, iqtisodiy, jinsiy, gigienik, estetik, mehnat, ijtimoiy ...) ning mavjud bo'lish tarixi va amaliyotiga borib taqaladi. Demak, bolalarda mustaqillik u yoki bu (masalan, aqliy, ahloqiy va boshqa) yo'nalishdagi ta'lim-tarbiya asosida shakllantiriladi, rivojlantiriladi degan yondashuv bir tomonlama hisoblanadi. Ya'ni mustaqillik bolaning borliq, makondagi mavjudligining, zamonning har soniyasida u ishtirok etgan, bevosita va bilvosita guvohi bo'lgan mazmunning ta'sirida paydo bo'ladi, shakllanadi va rivojlanadi. Bu fikr bola shaxsida mustaqillik sifatini shakllantirishning nazariy asosi sifatida pedagogika va psixologiyaning va albatta, yo'nalishlar bo'yicha metodika fanlari bo'yicha olib borilgan, amaliyotga o'z samarali ta'sirini bergan, umumilliy maqsadga erishish yo'lida amalga oshirilgan

barcha tadqiqotlarni olish mumkinligini ta'kidlaydi.

3. Turfa xil ta'lim oluvchilarni qo'llab-quvvatlashni shakli, metodi va vositalari.

LOGORITMIKA VA UNING AHAMIYATI H a r a k a t tirik materiyaning asosiy biologik sifati hisoblanib, u jonli tabiatning evolyusiyasi bilan birgalikda mukamallashadi. Harakat eng oliy mukammallikka "organizm-muhit" tizimidagi tizimosti o'z-o'zini boshqarish hisoblanuvchi organizm, insonning filogenetik rivojlanishida erishadi. Harakat – bu tizimda muvozanatlashtiruvchi asosiy mexanizmlardan biri. Inson organizmi nafaqat muhit bilan muvozanatga kirishadi, balki faol moslashadi, ko'nikadi va bu moslashuv jarayonida bir tomondan, tuzilmaviy va funksional tarzda takomillashadi, boshqa tomondan esa – muhitni faol o'zgartiradi va moslashtiradi. Ushbu jarayonda harakat insonda o'ziga xos, sifat jihatidan inson faoliyatining ongli, ijtimoiy-biologik xarakteriga sabab bo'ladigan yangi xarakterga ega bo'ladi. Harakatdan profilaktika, davolash va reabilitatsiyaning ulkan omili sifatida ham foydalaniladi. H a r a k a t l a n u v c h a n m a l a k a harakatning tarkibiy qismlari va harakatlanuvchan vazifani hal qilish usullariga diqqatni ko'tarinki jamlash bilan farqlanuvchi faoliyatning texnikasini egallash darajasi sifatida belgilanadi. H a r a k a t l a n u v c h a n k o' n i k m a – harakat texnikasini shunday egallash darajasiki, unda harakatlarni boshqarish avtomatik tarzda sodir bo'ladi va harakat yuqori ishonchlilik bilan farqlanadi. Ishlab chiqilgan harakatlanuvchan malakaning mavjudligi harakatlanuvchan aktning butunlay anglashni yo'q qilmaydi. Anglash qo'yilgan harakatlanuvchan vazifani bajarish uchun, harakat ustidan nazorat va hatto ba'zi hollarda harakatlanuvchan vazifalarni bajarishda kutilmaganda o'zgaruvchan sharoitga bog'liq ravishda malakani qisman avtomatlashtirmaslik uchun zarurdir. Harakatlanuvchan malakaning shakllanishi o'zida birinchi va ustunlik qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ikkinchi signal tizimining o'zaro ta'sirida dinamik stereotipning vujudga kelish jarayonini aks ettiradi. Psixomotor rivojlanish motor rivojlanish bilan mustahkam bog'liqlikda boradi. Bu aloqa shunchalik kuchliki, psixik rivojlanishning buzilishhi esa shunday ko'p miqdorli va turli-tuman harakatlanuvchan buzilishhlar bilan o'zaro aloqalarni yuzaga keltiradiki, "psixomotor rivojlanish" ta'rifi faqat me'yordagiga emas, balki patologiyaga nisbatan ham qo'llaniladi. Rivojlanishning boshlang'ich bosqichlarida badanning harakati va turlicha hissiyotlar (ko'rish, etishish, taktil, ta'm, muvozanat, kinestetik va boshqalar) ning anglanishi inson uchun atrofdagi dunyoni tanish vositasi hisoblanadi – bu intellektual bilishga qaraganda birmuncha elementar daraja. Psixomotor rivojlanish buzilishhida turlicha modallikni his qilishning to'liq bo'lmagan va noto'g'ri his qilish tahlili amalga oshiriladi. Bitta analizator olib tashlash bilan bog'liq ravishda qolganlarining sezgirligi pasayadi. Masalan, past aqli

zaiflik bilan qiynaluvchi bolalar bilan ishlovchi shaxslar ko'p e'tiborni bolalarning ushlab olishiga, maqsadli yo'naltirilgan va ixtiyoriy harakatlarga, maqsadli yo'naltirilgan artikulyasion harakatlar va h.k. larga o'rgatishga qaratadi. Kar va past eshituvchi bolalar bilan shug'ullanuvchi pedagoglar ularni yuzdan o'qishda ko'zdan foydalanishni yoki unli va undosh tovushlarning to'g'ri artikulyasiyasini o'rgatadilar. Ko'rlar va zaif ko'ruvchilar bilan ishlaydigan pedagoglar patsientlar harakatlanuvchi turli yuzaliklarda va binoda mavjud bo'lgan predmetlar, mebellar va h.k. larning joylashishiga harakatlanishga, qomatni ko'ruvchi odamdan farq qilmaydigan holda tutishga, shuningdek, yuqori taktil qobiliyatni talab qiluvchi Brayl bo'yicha o'qishni, makon orientatsiyasi, harakatli nozik tuyg'ularni egallashga moslashish malakasi va qobiliyatini ishlab chiqadilar.

Psixomotor rivojlanishi nisbatan me'yorda bo'lgan bola bir necha bosqichni o'taydi. Psixomotor rivojlanish predmetlar bilan maxsus bo'lmagan manipulyasiyadan boshlanadi va maqsadli yo'naltirilgan, rejalashtirilgan anglash hamda harakat yordamida haqqoniylikning bunyodga kelishi deb tushuniluvchi aqlli, anglangan faoliyatgacha davom etadi. Anglangan faoliyat shaxsiy tajribada bilib olgan predmetlar va ko'rinishlarning muayyan miqdoriga, motorikani takomillashtirmaydigan va atrofdagi borliq ko'rinishlariaro sabab-oqibatli aloqalarni bilishga tayanadi. SHaxsning psixomotor rivojlanishi jarayonida ongli faoliyatga bola rivojlanishi va faoliyatini takomillashtiruvchi ikkinchi signal tizimi qo'shiladi.

Har bir harakat ma'lum bir ritmda sodir etiladi. Ritm (ohang) tushunchasi keng qamrovga ega va she'rga, proza, yurak nafas olish, tabiat, i shva h.k. larga nisbatan qo'llaniladi. Ritm universal kosmik kategoriya sifatida ham yuzaga chiqadi. «Makon va vaqt mangu ritm qonuniga bo'ysunuvchi materiya bilan to'ldirilgan», – deb yozgandi E.Jak-Dalkroz¹⁷. Ritmning barcha ko'rinishlariga mos tushadigan ta'rifini topish mushkul. “Ritm” tushunchasi ko'pincha ko'rinishlarning vaqtda almashinishi xususiyatlari bilan bog'liq, biroq makon san'ati – balet, rassomlik, haykaltaroshlik, arxitekturaga nisbatan “makon ritmi” haqida ham gapirish mumkin. Ritmning asosiy belgisini birmuncha kamroq yoki ko'proq takrorlashning qat'iy davriyligida ko'rish qabul qilingan. Biroq vaqtinchalik san'atlarda, ya'ni “ritm” tushunchasi birmuncha yuqori rol o'ynaydigan joyda bu belgi yo'q bo'lishi mumkin, masalan, spektakl, proza ritmi, ba'zida musiqa ritmi takrorlanishning davriyligi bilan xarakterlanmaydi. Ritm ko'p narsani o'z ichiga oladigan tushuncha sifatida faqat bitta, noaniq belgisi bilan farqlanadi: bu predmetlar, ko'rinishlar, jarayonlarning vaqtinchalik yoki makoniy tartibi. Psixolog B.M.Teplov ritm ba'zi bir muayyan jarayonni vaqtda tashkil etish deb hisoblaydi. Ritm bir-birining ketidan keluvchi u yoki bu guruh vaqt qatorining ba'zi bo'linishlarini zaruriy shart sifatida ko'zda tutadi. Ritm haqida faqatgina bir tekisda ketma-ket keluvchi qo'zg'atuvchilarning ma'lum bir guruhlariga bo'linganidagina gapirishimiz mumkin,

shu bilan birga, guruhlar bir xil (2-3 a'zodan va h.k.) yoki bir xil bo'lmashligi ham mumkin. Biroq har qanday guruh va vaqt qatorining bo'linish ham ritmni hosil qilmaydi. Ritmik guruhning, albatta, umuman ritmning majburiy sharti urg'uning mavjudligi, ya'ni birmuncha kuchli va qandaydir ajralib turadigan qo'zg'atuvchiga munosabat hisoblanadi. Urg'usiz ritm yo'q. SHunday qilib, ritm urg'u atrofida birlashuvchi guruhlarda qo'zg'atuvchining vaqtinchali ketma-ketligidagi qonuniy bo'linmasidir. Pedagogik aspektda ritmika (grekcha *rhythmikos* so'zi ritmga taalluqli, ravon, bir me'yordagi kabi ma'nolarni beradi) – bu harakatning musiqa bilan bog'liqlikda qurilgan jismoniy mashqlar tizimi. Ritmika, ayniqsa, bola yoshida jismoniy va badiiy tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. U bolalarning uyg'unlashgan jismoniy rivojlanishiga, musiqiy eshitish, musiqiy xotira, harakat aniqligining rivojlanishiga yordamlashadi, bolalarni musiqa, raqs, qo'shiq bilan tanishtiradi, harakatda musiqiy asarning xarakteri va jadalligini aks ettirishga o'rgatadi. Ritmika mashg'ulotlarida sakrash, o'yinli mashqlar, yugurish, badiiy gimnastika elementlari, raqsli va imitatsiyali harakatlardan foydalaniladi. Maxsus, o'ziga xos tamoyillar - logopedik ritmning nutqiy patologiyaga ega shaxslarning jismoniy imkoniyatlari bilan aloqasi, nutqiy nuqsonini e'tiborga olish, shaxsni rivojlantirish, harakat faoliyatini rivojlantirish jarayonida u bilan bir vaqtda aqliy, axloqiy, estetik va sensor tarbiyani amalga oshirish; logopedik ritmikaning sog'lomlashtirishga yo'nalganligi; logopedik ritmikaning musiqali faoliyatning boshqa turlari; musiqani eshitish, ashula aytish, musiqali ritmik harakatlar, bayramlar, raqsga tushish, musiqa asboblarini chalish va boshqalar bilan bog'liqligi: logopedik ritmikaning nutqiy patologiyaga ega bo'lgan shaxslarga tibbiy-psixologopedagogik ta'sir kompleksi vositalari bilan bog'liqligi. Logoritmik ta'sir tizimining asosiy bo'g'inlari tavsifi. Nutqiy bo'lmagan jarayonlarni rivojlantirish; eshitish diqqati va eshitish xotirasi; ko'rish tasavvuri va malakalarini, umumiy harakatla koordinatsiyasi va ixtiyoriy nozik harakatlarni rivojlantirish, yuz mimikasini rivojlantirish, harakatda sur'at va ritm xislarini, ixtiyoriy diqqatni tarbiyalash, taqlid qilish, faollik, mustaqillik kabi shaxs xususiyatlarini tarbiyalash, xulq buzilishlarini korreksiyalash. Musiqa bolalarni estetik tarbiyalash, aqliy qobiliyatlarini faollashtirish va jismoniy jihatdan rivojlantirish vositasi, musiqa va harakat. Nutq nuqsonlariga ega bo'lgan shaxslarni musiqali ritmik tarbiyalashning vazifalari: sog'lomlashtirish, ta'limiy, estetik, tarbiyaviy, korreksion. Logopedik ritmika vositalari: ashula, turli yo'nalishidagi qadam tashlashlar (marshirovka), tonusini bo'shashtiruvchi mashqlar, musiqasiz nutqiy mashqlar, musiqali ritm hissini tarbiyalovchi mashqlar, musiqali mustaqil faoliyat, o'yin faoliyati. Logopedik ritmika metodlari: harakat xislari va xissiy idrokning yorqinligini ta'minlovchi ko'rgazmali metodlar; ongli o'zlashtirishga qaratilgan topshiriqlarni anglashga va harakatli mashqlarni ongli bajarishga, turli holatlarda ulardan mustaqil

ravishda foydalanishga yordam beradigan ogʻzaki metodlar; amaliy faoliyat bilan bogʻliq boʻlgan, oʻz muskul-motor sezgilarida harakat idrokining toʻgʻriligini taʼminlovchi amaliy metodlar: turli oʻyin va musobaqa metodlari; koʻrgazmali, ogʻzaki va amaliy metodlarda qoʻllaniladigan muammoli oʻqitish va tarbiyalash metodlari.

4. Inklyuziv taʼlimda pedagogning rolini kuchaytirish yoʻllari.

INKLYUZIV TAʼLIMDA ART TEXNOLOGIYALARINING OʻRNI
Maʼlumki, tarbiya jarayonida ayniqsa, rivojlanishida nuqsoni mavjud oʻquvchilarni tarbiyalash gʻoyat murakkabdir. “Oʻzbekiston Respublikasining nogironlarni ijtimoiy himoya qilish toʻgʻrisida”gi Qonuniga muvofiq jismoniy va aqliy nuqsonlari mavjud boʻlgan va shu nuqsonlar tufayli turmush faoliyati cheklanganligi sababli ijtimoiy himoya va yordamga muhtoj boʻlgan shaxs nogiron yoki imkoniyati cheklangan deb hisoblanadi. Imkoniyati cheklangan har qanday inson esa atrofadigilarning alohida yordamiga muhtojdir. Shunday ekan, ularning hayotda oʻz oʻrinlarini topib ketishlariga koʻmaklashish har birimizning burchimizdir. Bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan alohida yordamga muhtoj bolalarga juda katta imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Boʻlajak mutaxassislarni tayyorlashda maxsus fanlarning oʻrni beqiyosdir Taʼlim muassasalarida artterapiya badiiy ijod orqali korreksiyalash va rivojlantirish usuli hisoblanadi. Uning pedagoglar uchun jozibadorligini, asosan ogʻzaki aloqa vositalaridan foydalanadigan asosiy tuzatish va rivojlanish yoʻnalishlaridan farqli oʻlaroq, Art terapiya vizual va plastik ifoda "tilidan" foydalanishi bilan izohlash mumkin. Bu, ayniqsa, bolalar bilan ishlashda juda muhimdir va ularni izlanish, rivojlantirish va uygʻunlashtirish uchun ajralmas vosita boʻlib, bola hissiy holatini soʻz bilan ifoda eta olmaydi. Aksariyat hollarda bolalar oʻz muammolari va tajribalarini ogʻzaki bayon qilishda qiynaladilar. Ogʻzaki boʻlmagan ifodalar esa ular uchun koʻproq qulaydir. Bu, ayniqsa, nutqida nuqsoni boʻlgan bolalar uchun juda muhim, chunki ularning xatti-harakatlari oʻz-oʻzidan paydo boʻladi va ular oʻzlarining xatti-harakatlarini aks ettirish qobiliyatiga ega emaslar. Ularning tajribalari toʻgʻridan-toʻgʻri badiiy obraz orqali "chiqadi". Bunday "mahsulot" ni idrok etish va tahlil qilish oson. Bolaning oʻyin faoliyatiga tabiiy moyilligi, bolalar tasavvurining boyligi muhimdir. Shuni inobatga olgan holda, Art-terapiya elementlari bilan tuzatish ishlarini tashkil etishda sinfda oʻyin va ijod muhiti yaratiladi. Art terapiya elementlari bilan mashgʻulotlar imkoniyati cheklangan bolalar bilan tuzatish ishlarida juda samarali. Shuningdek, imkoniyati cheklangan bolalarning aksariyati "Art" texnologiyalarining boy resurslaridan foydalangan holda tuzatilishi mumkinligi bilan ajralib turadi.

Art texnologiyalari, uydagi taʼlimda xam bolalar bilan ishlashga qiziqish uygʻotadi. Birgalikda oʻz-oʻzini namoyon qilish orqali oilaviy munosabatlar uygʻunlashadi. Shuningdek, oilaviy muammodan uzoqlashtirish va boshqa

tomondan qarash imkoniyati beradi. Badiiy uslublar orqali o'zini namoyon qilish jarayoni bevosita bolaning ruhiy salomatligini mustahkamlash bilan bog'liq bo'lib, uni muhim psixoprofilaktika omili deb hisoblash mumkin. Art-texnologiyalaridan foydalanish pedagogga bolaga uning muammolarini yengishga, hissiy muvozanatini tiklashga yoki mavjud xatti-harakatdagi buzilishlarni bartaraf etishga va intellektual rivojlanishga yordam berishga yordam beradi. Bolalar art-terapiyasi - bu bolalar bilan terapevtik munosabatlarni o'rnatish yoki bolalarning rivojlanishini ta'minlash uchun psixologik yordam, har qanday san'at vositalaridan foydalanishni o'z ichiga olgan art-terapiyaning zamonaviy yo'nalishi. Bolalarda kattalar singari keng ko'lamli himoya mexanizmlari mavjud emas, demak ular o'z muammolari haqida ancha oldin gapirishga tayyor bo'lishadi. Terapevtning vazifasi bu daqiqani o'tkazib yubormaslik va har bir so'zga juda diqqatli bo'lib, bola haqida gapiradigan narsaga juda diqqatli bo'lishdir. Aloqa ko'pincha aynan shu sababdan yuzaga kelmaydi - chunki terapevt kutib turadi va barcha ma'lumotlar uning oldida bo'lganida qidiradi. "Art Therapy" atamasi ikkita so'zning qo'shilmasidan hosil bo'lgan. "Art" inglizcha so'zdan olingan bo'lib-"san'at", "Terapiya" so'zi esa yunoncha "therapeia" so'zidan olingan bo'lib — davolash degan ma'noni anglatadi. Art terapiya- san'at bilan davolash demakdir.

Art terapiya - bu san'at va ijodkorlikka asoslangan psixoterapiyaning eng yosh va jadal rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biridir. Bu diagnostika, tuzatish va shaxsning psixologik muammolarini davolashni o'z ichiga oladi.

Art terapiya - bu ijodkorlik va turli xil badiiy texnikalarni o'z ichiga olgan psixoterapiyaning eng samarali usullaridan biridir. Art-terapiya yordamida tuzatish eng yumshoq va samarali hisoblanadi. Bu sizga ijtimoiy moslashuv muammolaridan tortib, bolalarning salohiyatini rivojlantirish bilan yakunlangan turli xil muammolarni hal qilishga imkon beradi. Artterapiyaning asosiy maqsadi bolada o'zini-o'zi bilish jarayonini o'zlashtirish va uning o'zini namoyon qilish qobiliyatini rivojlantirishdir.

"Art terapiya" tushunchasi hozirgi vaqtda bir necha ma'noga ega: - davolash va tuzatishda ishlatiladigan san'at to'plami; - art-terapiya texnikasi to'plami; - psixoterapevtik va psixoreksiya amaliyotining yo'nalishi; - usul. Dastlab art-terapiya rasm terapiyasi, ya'ni tasviriy san'at bilan davolash deb nomlangan. Bugungi kunda art-terapiya mavjud ko'p turlari va kichik turlari paydo bo'lgan.

"Art terapiya" (art-terapiya) atamasi birinchi bo'lib 1938-yilda Adrian Xill tomonidan sanatoriylarda sil kasalligi bilan og'rigan bemorlarning badiiy mashg'ulotlarini tasvirlashda ishlatilgan. Keyin bu atama terapevtik san'atning barcha turlariga qo'llanila boshlandi. Kasbiy faoliyatning maxsus turi sifatida artoterapiya Ikkinchi Jahon Urushidan keyin Buyuk Britaniyada psixoterapiya bilan bog'liq holda rivojlana boshladi. Ijodkorlikda qasddan o'zini oshkor qilish bilan

terapiya Z.Freydning psixoanalizidan, K.G.Yungning analitik psixologiyasidan Moreno psixo-dramasidan va amerikalik o'qituvchi M.Naumburgning grafik ifodasi bilan terapevtik yordamning dinamik nazariyasidan kelib chiqdi. A.Kopitinning so'zlariga ko'ra, art terapiya turli fanlarni - psixologiya, tibbiyot, pedagogika, madaniyatshunoslik va boshqalarni birlashtirgan fanlararo bilim sohasidir. Uning asosi badiiy amaliyotdir, chunki art-terapiya mashg'ulotlari paytida mijozlar vizual faoliyat bilan shug'ullanishadi. Art-texnologiyalarning maqsadi- bo'lajak defektologlar, alohida yordamga muhtoj bolalarni art texnologiya yordamida ularning hissiy-irodaviy sohasini, bilish jarayonlarini, umumiy va mayda motorikasini rivojlantirishdan iborat. Art-texnologiyaning vazifalari: -Mavjud art-texnologiya usullarini moslashtirish va ulardan alohida yordamga muhtoj bolalar va ularning ota-onalari bilan psixo-korreksion ishlari tizimida foydalanish. -Turli yoshdagi va shaxsiy rivojlanishning turli xil buzilishlari bo'lgan alohida yordamga muhtoj bolalar bilan psixo-korreksion ishlarda artterapiyadan foydalanishning xususiyatlarini ochib berish va samaradorligini aniqlash.

- Alohida yordamga muhtoj bolalardagi o'zini-o'zi nazorat qilishga o'rgatish, iqtidorini namoyon qilishga yordam berish va o'z-o'ziga bo'lgan bahoni ko'tarishga o'rgatishdan iboratdir. -Art-texnologiya nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning, nutq nuqsonlarini bartaraf etish hamda bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantirish. Ularning ruhiyatini barqarorlashtirish va yashirin qobiliyatini yuzaga chiqarishdan iboratdir.

Zamonaviy art-texnologiya quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- Izotexnologiya - tasviriy san'at yordamida terapevtik ta'sir: rasm, modellashtirish, badiiy hunarmandchilik va hokazolar;
- imotexnologiya - obraz, teatrlashtirish, dramatisatsiya orqali ta'sir o'tkazish;
- musiqiy terapiya - musiqani idrok etish orqali ta'sir o'tkazish;
- ertaktexnologiya - ertak, masal, afsona orqali nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqiga ta'sir o'tkazish;
- kinestik texnologiya - raqs va harakat orqali ta'sir;
- dramateknologiya - imkoniyati cheklangan bolalar o'rtasida teatr pyesasini sahnalashtirishga o'rgatish;
- qum texnologiya - qum orqali imkoniyati cheklangan bolalarning nutqi hamda bilish jarayonlarini rivojlantirishdan iborat.
- fototexnologiya - rasmga tushirish orqali imkoniyati cheklangan bolalarning psixologik holatini barqarorlashtirish, bolalarning diqqatini, nutqini rivojlantirish.
- tuzatuvchi ritm (harakatlar bilan ta'sir), xoreotexnologiya;
- o'yin texnologiyasi va boshqalar.

Yuqoridagi art-texnologiyalar, imkoniyati cheklangan bolalarni, ta'lim va ijtimoiy hayotga tayyorlashda korreksion ahamiyatga ega. Har bir turi bolani

san'atga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Imkoniyati cheklangan bolalarni kasb tanlash haqidagi tushunchalarini kengaytiradi. Bolalarni eng asosiysi bilish jarayonlarni, ya'ni xotirasini, diqqatini, tasavvurini, tafakkurini Art-texnologiya kursidan o'tib, bola o'zini-o'zi bilish, o'zini ifoda etish, nutqining ravonligi, ijodiy qobiliyatlarining rivojlanganligi, umumiy va barmoqlar harakatchanligining yaxshilanishi va buning natijasida uning ruhiy holati uyg'unlashishiga erishiladi. Art-texnologiya mashg'ulotlari individual va guruhli shaklda olib boriladi.

Nazorat savollari:

1. Inklyuziv ta'limning nazariy asoslari?
2. Inklyuziv ta'limning huquqiy kafolatlari?
3. Inklyuziv ta'lim konsepsiyasi?
4. Inklyuziv ta'lim modellari va strategiyalari?
5. Turfa xil ta'lim oluvchilarni qo'llab-quvvatlashni shakli, metodi va vositalari.
6. Inklyuziv ta'limda pedagogning rolini kuchaytirish yo'llari?

V. GLOSSARIY

Adaptatsiya – organizmning o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashuvi, sezgi organlariga ta’sir manbalariga adaptatsiya natijasida analizatorlar sezgirligining o‘zgarishi.

Anomal bolalar – jismoniy va aqliy rivojlanishdan orqada qolgan va maxsus ta’limga muhtoj bolalar.

Asteniya – toliqish, kayfiyatning tez-tez o‘zgarib turishi, uyqudagi vegetativ

Affektiv buzilishlar – ruhiyatdagi buzilishlar Analizatorlarning o‘zaro aloqalari – sensor sohasi birligi namoyon bo‘lishining bir turi.

Brayl sistemasi – Ko‘zi ojiz bolalar o‘qishi va yozishi uchun mo‘ljallangan relef-nuqtali shriftdagi alifbo.

Bilishga qiziqish – faoliyat jarayonida voqelik predmetlari va hodisalariga faol munosabatdan kelib chiqadigan bilimga intilish.

Bola (bolalar) – o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxs (shaxslar).

Gipodinamiya – harakatlanish faolligining susayishi.

Diqqat – bir vaqtning o‘zida ob’ektlardan diqqatni ko‘chirishda ongda aks etuvchi boshqa ob’ektlarning ajralib chiqishini ta’minlovchi ruhiy faoliyatning tashkiliy shakli.

Daktil alifbosi – eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun o‘qishda va yozishda qo‘llaniladigan yordamchi nutq turi. Defektologiya sohasi tiflopedagogika, surdopedagogika, oligofrenopedagogika va logopediyaga bo‘linadi.

Jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlar mavjud bola – Imkoniyati cheklangan bolalikka chiqarishga yetmaydigan jismoniy, aqliy, sezish (his-tuyg‘u) va (yoki) ruhiy nuqsonlari mavjud bola.

Zaif ko‘ruvchilar uchun kitoblar – ko‘rish imkoniyatini beruvchi misol va ramzlar yirik harflar bilan yozilgan kitoblar.

Ijtimoiy adaptatsiya – individning yangi ijtimoiy muhit sharoitlariga faol moslashuv jarayoni; bu jarayon natijasi.

Ijtimoiy maishiy yo‘naltirish mashg‘ulotlari – hayot faoliyati uchun zarur ijtimoiy malakalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar.

Integratsiyalangan ta’lim – ruhiy-jismoniy nuqsonga ega bo‘lgan bolalar extiyojlariga ko‘ra ta’lim jarayonini amalga oshirish, umumta’lim muassasalariga jalb qilish.

Inklyuziv ta’lim – Rivojlanishda jismoniy yoki psixik nuqsoni bo‘lgan bolalarni umumta’lim muassasalarida sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda uyg‘unlikda ta’lim olishi.

Inklyuziv ta’lim modeli, texnologiyasi – uzluksiz ta’lim shartsharoitlarida imkoniyatlari cheklangan bolalarning me‘yorida rivojlanayotgan tengdoshlari bilan

o‘zaro aloqada bo‘lishning variant va shakllari.

Ijtimoiy reabilitatsiya – tibbiy tadbirlar majmuasi, ta’lim, tarbiya, kasb tanlash, ishga joylashtirish va boshqalar.

Imkoniyatlari cheklangan bolaning ijtimoiy adaptatsiyasi – jamiyatda qabul qilingan hulq qoida va me’yorlariga nisbatan mushkul hayotiy shartsharoitdagi bolaning faol moslashuv hamda hayot faoliyatida mavjud muammolarni bartaraf etish jarayoni.

Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchilarning ijtimoiy-mehnat reabilitatsiyasi – ko‘rlik va yomon ko‘rishning salbiy oqibatlarini bartaraf etish va rivojlanishda jismoniy yoki psixik nuqsoni bo‘lgan bolalarni ijtimoiy foydali faoliyatga jalb etishga yordamlashuvchi ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, ishlab chiqarish, tibbiy, psixologik-pedagogik tadbirlar tizimi.

Ko‘rlar uchun kitoblar – Brayl tizimi bo‘ imkoniyati cheklangana sezgi orqali qabul qilish uchun bo‘rttirma-nuqta harflar bilan yozilgan kitob.

Kompensator jarayonlar – organizm, o‘zining buzilgan funksiyalarini ishdan chiqqan tizimlarini, alohida organlar va ularning tarkibiy qismlari yordamida sog‘lom organlar bilan qoplash.

Korreksiya – bolalarda ruhiy va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini pedagogik usullar va tadbirlarning maxsus tizimi yordamida to‘liq yoki qisman tuzatish.

Korreksion mashg‘ulotlar – ruhiy-jismoniy rivojlanishdagi kamchiliklarni tuzatish va bartaraf etishga oid mashg‘ulotlar.

Ko‘nikmalar – o‘zlashtirilgan bilimlar va hayotiy tajriba asosida hattixarakatlarning tez, aniq, ongli bajarilishiga tayyorgarlik.

Qo‘zg‘aluvchanlik – organizmning ayrim (ruhiy, muskul, bez) to‘qimalarning ta’sir qiluvchilar harakatlariga o‘ziga xos reaksiya bilan javob qaytarish xossasi.

Qo‘zg‘alish chegarasi – his-hayajonni paydo qiluvchi qo‘zg‘atuvchining minimal kuchi.

Qo‘zg‘atish – atrof va imkoniyati cheklanganki muhit omillarining (qo‘zg‘atuvchilar) organlar va to‘qimalarga ularning dastlabki holati o‘zgarishiga olib keluvchi ta’siri.

Labdan o‘qish – gapirayotgan shaxsning nutqini ko‘z orqali qabul qilish. Bolalarni eshitish qobiliyati funksiyasini ko‘rish qobiliyati bilan qoplashni amalga oshirishga o‘rgatuvchi o‘quv-korreksion fan.

Maxsus metodika – rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalarning rivojlanish xususiyatlarini nazarda tutuvchi ta’lim metodikasi.

Maxsus pedagogika – nuqsonli bolalarni tarbiyalash va ta’lim berish to‘g‘risidagi fan.

Maxsus ta’lim – ta’lim jarayonida nuqsonli bolalarning ruhiy va jismoniy

rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatish va to'ldirish. Maxsus maktab o'quvchilarida ommaviy maktablarda ta'lim oluvchilardagi kabi bilim, malaka va ko'nikmalarni hamda maxsus bilimlar, malakalar va ko'nikmalarni shakllantirish.

Maxsus ta'lim ehtiyojlari – maxsus tashkil qilingan sharoitlarda bolaning ruhiy-jismoniy holati bilan bog'liq maxsus dasturlar.

Maxsus metodika – rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion pedagogik ish mazmunining metodikasi.

Mestriling – Imkoniyati cheklangan bola bolalarni o'z tengdoshlari bilan turli xil, darsdan tashqari tadbirlarda o'zaro muloqoti.

Murakkab nuqsonlar – bir kishida mavjud ikki yoki bir necha jismoniy yoki ruhiy kamchiliklar.

Moslashuv reaksiya – organizmning ta'sir qiluvchi manbani yanada yaxshiroq qabul qilishga va tahlil qilishga va unga javob qaytarish uchun analizatorlarni sozlashga yordam beruvchi atrof-muhitning o'zgarishiga reflektor reaksiyasi.

Imkoniyati cheklangan bolalik – organizmning kasallik yoki jarohat natijasida ma'lum bir kasbda to'liq yoki qisman barqaror funksional buzilishlarga, saviyaning pasayishiga olib keluvchi holati.

Imkoniyati cheklangan bola bola – jismoniy, aqliy, sezgi (his-tuyg'u) va (yoki) ruhiy nuqsonlari tufayli hayot faoliyati cheklangan, ijtimoiy yordam, muhofazaga muhtoj va qonun tomonidan belgilangan tartibda Imkoniyati cheklangan bola deb e'tirof etilgan bola.

Imkoniyati cheklangan bola va imkoniyatlari cheklangan bolalarning ijtimoiy reabilitatsiyasi – bolalar tomonidan yo'qotilgan ijtimoiy aloqalar va funksiyalarni tiklash, hayotini ta'minlash muhitini yaratish, ularga g'amxo'rlikni kuchaytirishga yo'naltirilgan tadbirlar majmuasi.

(Psixologiyada) assotsiatsiyalar – biror jarayonning u bilan bog'liq boshqa alohida ruhiy jarayonlar va hodisalar (tasavvurlar, fikrlar, his-tuyg'ular) o'rtasidagi aloqalar buzilishlarga olib keluvchi asabiy-ruhiy kamchilik.

Patogenez – kasallik, patologik jarayon yoki holat rivojlanishi mexanizmi.

Ruhiy funksiyalar – miyaning aks ettirish faoliyatining turli shakllari: sezish, qabul qilish, xotira, fikrlash va hokazaolar.

Ruhiy rivojlanish – inson hayotining turli bosqimkoniyati cheklanganlarida uning bilish faoliyati va shaxsi xarakterining shakllanishi va takomillashuvi.

Reabilitatsiya – organizmning buzilgan funksiyalari hamda kasallar va Imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy funksiyalari va mehnatga layoqatligini tiklash yoki o'rnini qoplashga qaratilgan tibbiy, pedagogik va ijtimoiy tadbirlar majmuasi.

Rag'bat – amaliy harakatga undov, turtki.

Sog'liq imkoniyatlari cheklangan bola – jismoniy va (yoki) ruhiy

rivojlanishda nuqsonlarga ega, ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj bola.

Sensor tarbiya – sezgi, ko‘rish, eshitish, his qilish va boshqa organlarning rivojlanishiga qaratilgan pedagogik usullar jamlanmasi.

Sindrom – bir patogenezdagi birlashgan alomatlar jamlanmasi.

Skolioz – umurtqaning yonboshdan qiyshayishi.

Sezgi organlari – sub’ektni o‘rab turgan muhitdagi (eksteroretsepsiya) va uning organizmidagi (interoretsepsiya) o‘zgarishlar to‘g‘risida xabar beruvchi signallarni qabul qilishga moslashgan asab organlari.

Taktil retseptor – teri yuzasiga, ba’zi shilliq pardalarga teginish va bosim o‘tkazish retseptori.

Tiflopedagog – ko‘r va yomon ko‘ruvchi bolalar va o‘smirlarning bilish faoliyati va buzilgan (kam rivojlangan) funksiyalaridan kelib chiqqan holda ularning ta’lim, tarbiya, politexnik va mehnat tayyorgarligini amalga oshiruvchi maxsus oliy ma’lumotli pedagog.

Tiflopsixologiya – maxsus psixologiyaning ko‘zi oqiz va zaif ko‘ruvchi bolalarning ruhiy rivojlanishi, ta’lim va tarbiyada uni tuzatishning yo‘llari va usullarini o‘rganadigan bo‘limi.

Tolerantlik – tevarak-atrofdagilarga nisbatan bag‘ri keng, do‘stona munosabat.

Taqlid qilish – biror kishining hatti-xarakatlari, qilmishlari va hokazalar ongli va ongsiz ravishda bajarilishidan tashkil topgan xulq shakli.

Tushunish – hodisalar yoki predmetlarni ular o‘rtasidagi aloqalarni aniqlash yo‘li bilan tushunib yetish jarayoni.

Tibbiy-mehnat ekspertizasi – kasal, jarohatlangan yoki tug‘ma nuqsonli kishilarning mehnatga loyqligini aniqlashning ijtimoiy davlat faoliyati amaliy tizimi.

Tibbiy-pedagogik konsultatsiya – nuqsonli bolalarni tegishli o‘quvtarbiyaviy va sog‘lomlashtirish muassasalariga yo‘llash maqsadida ularni kompleks tibbiy-ruhiy-pedagogik ko‘rikdan o‘tkazadigan maxsus muassasa.

O‘zini intizomga bo‘ysundirish – o‘z hulq-atvoridagi intizom, o‘zini tuta bilish.

Himoya refleklari – organizmning tabiiy ravishda me‘yoriy faoliyatini izdan chiqaruvchi ta’sir omillariga reaksiyalari.

Eshitib-ko‘rib qabul qilish – eshitish qobiliyati ancha susaygan bolalarning nutqni lablar va eshitish yordamida qabul qilishi. Bu yerda tovushni kuchaytiruvchi aasboblardan foydalanish dastavval shart.

Etiologiya – xastaliklar va patologik holatlar paydo bo‘lishi sabablari va sharoitlari to‘g‘risidagi fan.

VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.
6. Mirziyoyev Sh.M.“Yangi O‘zbekiston strategiyasi” “O‘zbekiston”, 2021.-464b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

7. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
8. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvar “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentabr“Oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maksadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3290-sonli Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabdagi “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4910-son Qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” 296-son Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

13. Yo‘ldoshev J.F. Xorijda ta’lim (metodik qo‘llanma) - Toshkent: 1995- yil.
14. Ikromov A.B., Mxmudov S.Y., Anorqulova G.M. Germaniya: Ta’lim, ilmfan (metodik qo‘llanma. Kasb mahorati jurnali -2004-yil. 2 son.
15. G.Anorqulkova, A. Karimov.Xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimining o‘ziga xos yo‘nalishi uslub va tahlili. Xalq ta’limi ilmiy metodik jurnali. 2017-yil. 3-son.

16. A.Nosirov. Fransiyada talim sifati qanday nazorat qilinadi? – “Boshlang’ich ta’lim“ jurnali. 2019- yil. 12-son.
17. R.Ilashova. Amerika maktablarida.- “Boshlang’ich ta’lim” jurnali. 2019- yil. 3-son.
18. Amirsaidova SH.M. “Maxsus pedagogika fani taraqqiyotida sharq mutafakkiri g‘oyalarning o‘rni va roli” . Ped. fan. nom... diss. – T., 2006.
19. Pektra Spandagou, Cathy Little, David Evans, Michelle L. Inklusive Education in Schools and Early. Childhood Settings.springer Springer Singapore. 2020.
20. Инклюзивное образование в Испании. Пашкова.М, Скуднова. Т.Д.2018.
21. Екатерина Михальч. Инклюзивное образование. 2021.
22. Наталья Микляева, Татьяна Чудесникова, Анна Виленская, Ольга Кудравец, Светлана Семенака. Инклюзивное образование детей с ограниченными возможностями здоровья. Москва Юрайт. 2021.
23. Nurmuhamedova L.SH. Nogiron bolalarning huquqiy asoslari va ilmiy-nazariy masalalari. Defektolog kadrlarni tayyorlash jarayoniga innovatsion ta’lim texnologiyalarini tadbiq etish: muammolar va istiqbollar.-T.,2014.
24. D.S.Qaxarova —Inklyuziv ta’lim texnologiyasi|| Toshkent. 2014.
25. P.Шомахмудова, Д.Тулаганова, А.Бердиева. Жисмоний ривожланишида муаммолари бўлган болалар билан инклюзив ва махсус таълим тизимида олиб бориладиган коррекцион педагогик ишлар. Тошкент: ХТ «Розиқов О.Ж». 2007 й.
26. P.Шомахмудова. Инклюзив таълимнинг назарий ва амалий асослари. Тошкент: ХТ «Розиқов О.Ж». 2007 й.
27. Ю.В.Шумиловская Подготовка будущего учителя к работе с учащимися в условиях инклюзивного образования.
28. Yuldashev J.G‘., S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. –T.: O‘qituvchi, 2004

IV. Elektron ta’lim resurslari

29. <http://natlib.uz>-Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi
30. <http://yedu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
31. <http://lex.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
32. <http://lib.bimm.uz>- Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
33. <http://ziyonet.uz>- Ta’lim portali ZiyonET
34. <https://tarixinstituti.uz/uzb/>Bo‘limlar
35. <http://www.istedod.uz> - “Iste’dod” jamg‘armasi sayti
36. <http://www.yedunet.uz> - maktablar, o‘quvchi va o‘qituvchilar sayti